



Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'R TARMOQLI ILMIY KONFERENSIYA

# YANG O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCE.UZ

## INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DAVRIYLIGI: 2018-2023



SPEKTROSKOPIYA -  
MATERIYANI BILISH USULI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJUY OLY TALIM MUASSASALARI PROFESSOR-OQTUVIGHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLU TALABALAR



TOSHKENT SHAHAR, AMIR  
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQQOT.UZ  
WWW.CONFERENCES.UZ



YANVAR  
№48

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
9-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-9**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-9**

**ТОШКЕНТ-2023**



“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 48-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 46 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ**

<b>1. Sarimov Islomjon Ibraim o'g'li</b>	
BUDJET TASHKILOTLARIDA SMETA TUZISH VA TASDIQLASH TARTIBINI ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	7
<b>2. Alimova Saboxat Gazievna, Abduraxmanov Shaxriyor, Akramova Leyla</b>	
TIBBIY SUGURTANI JORIY ETISHNING ASOSIY MUAMMO VA ECHIMLARI .....	10
<b>3. Рашидов Рахматулло Аъложонович</b>	13
КИЧИК БИЗНЕСНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН МОДЕЛЛАРИНИ ШАКЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	13
<b>4. Турсунов Жаҳонгир Пулатович</b>	
ОСОБЕННОСТИ ПЕНСИОННЫХ РЕФОРМ В СТРАНАХ МИРА .....	16
<b>5. Ҳамраев Элёрбек Эркинович</b>	
КОНСОЛИДАЦИЯЛАШГАН МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ ТУЗИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУ- СУСИЯТЛАРИ .....	19
<b>6. Мавлонов Нурбек Ихтиёр ўғли</b>	
МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАР ТЎҒРИСИДАГИ ҲИСОБОТНИ МҲҲС ТАЛАБЛАРИ АСОСИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	21
<b>7. Ҳайдарова Шахзода Авлвёровна</b>	
БЮДЖЕТЛАРАРО ҲИСОБЛАШУВЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	24
<b>8. Эрматов Азамат Ҳайитбоевич</b>	
БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА ИЧКИ АУДИТ НАТИЖАЛАРИНИ РАСМИЙЛАШТИ- РИШ ТАРТИБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	26
<b>9. Мухаммаджонов Муроджон Мўминжон ўғли</b>	
“БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТ ВА ИЧКИ АУДИТ ХИЗМА- ТИ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ” .....	29
<b>10. Jumamuratov Doniyor Mansurbek o'g'li</b>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XALQARO STANDARTLARNING QO'LLANISHI 31	
<b>11. Маннапова Шахноза Элшодовна</b>	
КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИДА ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛЛИКНИ ОШИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ .....	33
<b>12. Мухаммаджонов Муроджон Мўминжон ўғли</b>	
“ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ИЧКИ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТ ТИЗИМИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ” .....	35
<b>13. Ҳуррамов Фарход Ҳолбоевич</b>	
ЯНГИЛАНГАН СИЁСИЙ ЖАМИЯТДА АДОЛАТ ВА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ .....	37
<b>14. Tursinboyeva Guljakhon Inomjon kizi, Khamidova Dilafruz Kurbonali kizi</b>	
CURRENT ECONOMIC PROBLEMS IN UZBEKISTAN AND THEIR SOLUTIONS.....	40
<b>15. Mamatkulov Anvar Tashbayevich</b>	
MOLIYAVIY HISOBOTLARNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TISH BOSQICHLARI.....	42
<b>16. Mamatkulov Anvar Tashbayevich</b>	
MOLIYAVIY HISOBOTNI MHXS ASOSIDA YURITISH USULLARI.....	44



## ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

### BUDJET TASHKILOTLARIDA SMETA TUZISH VA TASDIQLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

**Sarimov Islomjon Ibraim o'g'li**  
O'zbekiston Respublikasi bank moliya  
akademiyasi tinglovchisi  
Tel: 90 988-93-43

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada budjet tashkilotlari xarajatlarini smeta asosida rejalashtirishadirishning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** Budjet tashiloti, xarajatlari smetasi, xarajatlar guruhlari, vaqtincha smeta, doimiy smeta, shtatlar jadvali.

Xarajatlar smetasi – tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo'lib, unda tashkilotlar uchun xarajatlari moddalari bo'yicha ko'zda tutilgan budgetdan ajratilgan mablag'lar (xarajatlar rejasi) aks ettiriladi. Budjet tashkilotlari tomonidan belgilangan tartibda budjet va budgetdan tashqari mablag'lar daromadlari va xarajatlari bo'yicha smetalari tuziladi va tasdiqlanib ijrosi ta'minlanadi. Bunda O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budgetlarida hamda mahalliy budgetlarda turuvchi tashkilotlarni moliyalashtirish, ular uchun tasdiqlangan xarajatlar smetalari asosida amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish va budgetdan moliyalashtirish xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi. Xarajatlar smetasini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash, ro'yxatdan o'tkazish, moliyalashtirish uchun qabul qilish tartiblari Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari, Moliya vazirligining buyruqlari va tegishli tarmoq vazirliklarining me'yoriy hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan. Lekin oxirgi yillarda davlat moliyasini isloq qilish loyihasini amalga oshirish doirasida so'nggi natijaga yo'naltirilgan budgetlashtirish tamoyillarining joriy qilinishi, o'rta muddatli budget istiqbollarini belgilash siyosatining ilgari surilishi, davlat budgetining g'azna ijrosi mexanizmlarining joriy etilishi, budget mablag'larini hisobidan davlat xaridlarini tashkil etish tartiblarining belgilanishi va budget siyosatidagi boshqa o'zgarishlarning amalga oshirilishi budget tashkilotlari xarajatlarini aniq rejalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishni talab etmoqda.

Xarajatlar smetasi budget tashkiloti yoki budget mablag'larini oluvchi tomonidan moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan, uning uchun nazarda tutilgan Budgetdan ajratiladigan mablag'lar xarajatlar moddalari bo'yicha aks ettiriladigan hujjat hisoblanadi<sup>1</sup>.


Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini tahlil qilishda asosiy e'tiborni davlatning quyidagi daromadlari shakllanishiga qaratish lozim:

- qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlariga;
- davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlarga;
- qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha, davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lariga;
- yuridik va jismoniy shaxslardan shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlariga;
- rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan budget ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlariga;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlarga.

1 O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi.T.: "Norma", MJCh.2014 y- 96 b. 3-moddasi



## 1-chizma. Budjet tashkilotlari xarajatlar smetalarining guruhlanishi<sup>1</sup>



Yakka smetalar yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan alohida olingan muassasa bo‘yicha tuziladi. Masalan, muayyan hududda (tuman yoki shaharda) joylashgan yuridik shaxs maqomida faoliyat qiluvchi davlat umumta’lim muassasalari, maktabgacha ta’lim muassasalari, kasbhunar kollejlari va akademik litseylar mustaqil ravishda budgetdan to‘lanishi ko‘zda tutilgan o‘z xarajatlarini yakka smeta asosida rejalashtiradi.

Jamlanma smetalar yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan va tegishli davlat boshqaruvi organlari huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari tomonidan xizmat ko‘rsatilayotgan tashkilotlar bo‘yicha tuziladi (masalan, tuman madaniyat bo‘limiga qarashli markaziy kutubxonalar tizimi bo‘yicha). O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksida keltirilishicha, “jamlanma xarajatlar smetasi - budget mablag‘larini taqsimlovchi tomonidan uning tasarrufidagi budget tashkilotlarining va budget mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetalarini asosida tuziladigan xarajatlar smetasi” hisoblanadi.

Budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smeta (daromad va xarajatlar smetasi) - tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo‘lib, unda tashkil bo‘lish manbalari va ushbu mablag‘larning qonunchilikka muvofiq foydalanish yo‘nalishlari ko‘rsatilgan holda budgetdan tashqari daromadlar tushumlarining prognoz hajmlari aks ettiriladi. Masalan, oliy va o‘rta maxsus, kasbhunar ta’limi muassasalarida talabalarni o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag‘lar va ularni ishlatalish yo‘nalishlari budget qonunchiligi (xususan, 2634-sonli Nizom) bilan belgilangan tartibda budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smeta asosida rejalashtiriladi.

Markazlashgan tadbirlar uchun smetalar - vazirliklar, idoralar va hokimiyatlar boshqarmalari va bo‘limlari tomonidan markazlashtirilgan holda amalga oshiriladigan xarajatlar bo‘yicha tuziladi va har bir markazlashgan tadbir uchun alohida ishlab chiqiladi. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini qishki kiyim-bosh bilan ta’minalash, birinchi sinf o‘quvchilariga o‘quv qurollari va anjomlari komplekti taqdim qilish bilan bog‘liq tadbirlar uchun tegishli vazirlik darajasida markazlashgan tadbirlar uchun smetalar ishlab chiqiladi.

Smetalar O‘zbekiston respublikasi davlat budjeti daromadlari va xarajatlarining amaldagi tasnifnomasiga muvofiq xarajatlarning to‘liq yoyilmasi ilova qilingan holda xarajatlarning to‘rt guruhi bo‘yicha tuziladi va hisobot berish maqsadida foydalaniladi.

1. Ish haqi va unga tengashtirilgan to‘lovlar (bolali oilalarga nafaqalar va kam ta’milangan oilalarga moddiy yordam, stipendiya va boshqalar;

<sup>1</sup> X.Yo.Majidov, Z.J.Murtazaev, D.E.Nazarova, S.M.Ochilova, S.I.Usmonov, “Byudjet tashkilotlari xarajatlarini smeta asosida rejalashtirishtrishning o‘ziga xos xususiyatlari” “Science and Education” Scientific Journal / Impact Factor 3.567 (SJIF) November 2022 / Volume 3 Issue 11



2. Ish haqiga qo'shimchalar
3. Kapital qo'yilmalar (Davlat investitsiya dasturlarida nazarda tutilgan aniq ro'yxatlarga muvofiq);
4. Boshqa xarajatlar.

Xarajatlar smetasini tuzish bo'yicha ishlarni tashkil etish davomida O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo'limlari o'zlariga bo'ysunuvchi tashkilotlarga budget to'g'risidagi qonun hujjatlari va moliya organining mazkur masala bo'yicha ko'rsatmalaridan kelib chiqib, kelgusi yil uchun smetalarni tuzish tartibi va muddatlari to'g'risida ko'rsatmalar beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, budget tashkilotlarida smetalar tuzish bu bevosita mamlakatda kelgusi yil uchun qilinishi lozim bo'lган asosiy vazifalarni belgilab olishdir. Budget mablag'lari hisobot choragida tejab qolinsa, tashkilotlarni kelgusi choraqda mablag' bilan ta'minlash hajmi kamaytirilmaydi. Budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilarga tegishli moliya yili uchun budjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmini etkazish tegishli moliya organlari yoki budget mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan budget to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh.Mirziyoyev, PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 24.02.2020.
2. H. Irgashev, “O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishi: yangicha yondashuv va imkoniyatlar” uza.uz 30.11.2020
3. Jo'lmamatov N. <https://zarnews.uz/uz/post/akciyadorlikjamiyatlari-2021-yildan-mhxstizimigatishi-shart>, 20.11.2020
4. IFRS Foundation web sites



## TIBBIY SUGURTANI JORIY ETISHNING ASOSIY MUAMMO VA ECHIMLARI

**Alimova Saboxat Gzievna,**

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Ijtimoiy fanlar kafedrasi

dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi

+998998284330

saboxat.alimova@mail.ru

**Abduraxmanov Shaxriyor,**

**Akramova Leyla**

menejment yo‘nalishi talabalari

**Annotatsiya:** quyidagi maqolada O‘zbekistonda oxirgi yillarda tadbirkorlik asosida shakillangan sug’urta bozori haqida ilmiy asosga ega bo‘ldan ma’lumotlar yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** tibbiy xizmatlar, taraqqiyot, majburiy tibbiy sug‘urta, ixtiyoriy tibbiy sug‘urta, iqtisodiy-ijtimoiy.

Dunyonи xozirgi vaqtда qamrab olgan muammolar kun sayin ortib borayotgan davrda, Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining bergan ma’lumotiga ko‘ra, dunyoning aholisini katta qismi eng kerakli tibbiy xizmatlar bilan to‘liq qamrab olinmagan. Ma’lumotlarga ko‘ra 800 milliondan ortiq aholi bu degani dunyo aholisining 12 foizi daromadlarining kamida 10 foizini sog‘liqni saqlash xarajatlariga sarflashadi. Raqamlı texnologiyalarni taraqqiyoti tibbiyotdagi og‘riqli masalalarni hal qilayotgan bo‘lsa-da, ko‘plab davlatlarda nochorlik va qashshoqlik aholi salomatligi darajasi ko‘tarilishiga yo‘l qo‘ymayapti. Natijada, ochlik va nosog‘lom yashash tarzi millionlab odamlar hayotini qiyinlashtirmoqda.

Buning eng optimal yechimlardan biri majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etishdir. Bunda muhim jihatlardan shuni aytish kerakki xattoki moliyaviy baquvvat bo‘lmagan aholining barcha qatlami ham to‘liq tibbiy xizmat bilan qamrab olinishi ko‘zda tutilgan. Ammo sanoqli rivojlangan davlatlargina ushbu sug‘urta turini amaliyotga muvaffaqiyatli kiritgan. Chunki tizimni yo‘lga qo‘yish uchun tibbiyot butun mamlakat bo‘ylab bir xil darajada rivojlangan bo‘lishi talab etiladi, bundan tashqari bir qancha iqtisodiy-ijtimoiy omillar tibbiy sug‘urtani amaliyotga tanishtirishga xalaqit qiladi.

Tibbiy sug‘urta amaliy jihatdan aholi salomatligini kafolatlaydi, xattoki tibbiyotdagi eng og‘riqli masalalar (tibbiyot muassasalari moddiy-texnik bazasi, korrupsiya, byurokratizm, navbatda turish, kadrlar taqchilligi va boshqalar) ni ham ijobjiy tomonga o‘zgartira oladi.

Tibbiy sug‘urta sohasida dunyo amaliyotida asosan ikki turdag‘i tibbiy sug‘urta: ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug‘urta mavjud. So‘nggi yillarda tibbiy xizmat narxlari qimmatlashib ketayotganligi hech kimga sir emas. Bunday holatda aholining zaif qatlamlarida yuqori malakali tibbiy xizmatlardan foydalanish uchun moddiy imkoniyat bo‘lmay qolishi albatta tabiiy hol. Majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etilishi aholiga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat sifatini oshishiga olib kelib, o‘z navbatida fuqarolarning malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini to‘laqonli amalga oshirish imkonini beradi. Tibbiy xizmatlardan foydalanuvchi iste’molchilarga sodda qilib aytadigan bo‘lsak, fuqaro sog‘lig‘i yomonlashib qolgan hollarda tibbiy xizmatlar uchun birdaniga katta miqdordagi mablag‘ni to‘lay olmaslik xavfini oldini olish uchun majburiy tibbiy sug‘urtadan foydalaniladi.

Majburiy tibbiy sug‘urta joriy etilishi tibbiy xizmatlar narxining arzonlashishiga olib kelib, fuqarolarga bir xil narxda xohlagan tibbiyot muassasasida sifatli tibbiy xizmat olish imkonini beradi. Fuqarolarning tibbiy xizmat uchun to‘laydigan qo‘srimcha (yani kimnidur maqsadiga xizmat qiladigan) va oshirilgan pul miqdori kamayadi. O‘z navbatida, majburiy tibbiy sug‘urta ishtiroy etayotgan fuqarolar sog‘lom payti ham to‘lovlar (sug‘urta mukofoti) to‘lashlari mumkin bo‘ladi.

Albatta nazariy jihatdan majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etilishi tibbiy xizmatlar ko‘rsatilishi arzonlashuviga olib kelishi sababli davlat budgetidan xarajatlar kamayadi, mazkur sohada yagona tizim yaratilishi oqibatida byurokratizm kamayib, davlat boshqaruvi osonlashadi. Bolalarning



sog‘lig‘iga e’tibor oshishi natijasida ular sog‘lom bo‘lib o‘sishi ta’milanadi va kelajakda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy xarajatlar oldi olinadi. Tadbirkorlik asosida shakillangan sug‘urta bozorida kuchli raqobat tizimi vujudga keladi. Shuningdek, sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida sug‘urta xizmatlarini takomillashtirish bo‘yicha majburiyatlar yuzaga keladi. Misol uchun, mijoz 200 ming so‘m sug‘urta mukofotini to‘laydigan bo‘lsa, o‘rtacha hisobda unga 1 mln.so‘mlik tibbiy xizmat ko‘rsatiladi va bu mablag‘ sug‘urta kompaniyasi tomonidan qoplab beriladi. O‘z-o‘zidan sug‘urta kompaniyasi sarflagan ortiqcha summasini yana mijozlarni chaqirish orqali qoplab olishga harakat qiladi. Natijada, sug‘urta kompaniyalari o‘z foydasi uchun xizmat sifatini oshiradi. Shu kabi ma’lumotlarni o‘rganish maqsadida ijtimoiy tarmoqning FACEBOOK dasturida ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazildi. O‘tkazishdan maqsad aholining tibbiy sug‘urta haqida qanday ma’lumotlarga ega ekanligi haqida, va joriy qilinsa nimalarga ega bo‘lishlari mumkinligi haqida savolnomha tuzilgan.

Izlanish natijasi sifatida respondentlar so‘rovnomaga bergen javoblari quyidagicha natijani tashkil etdi:

1. Tibbiy sug‘urta shunday imkoniyatki, u nafaqat aholi salomatligini kafolatlaydi, balki tibbiyotdagi og‘riqli masalalar (tibbiyot muassasalari moddiy-texnik bazasi, korrupsiya, byurokratizm, navbatda turish, kadrlar taqchilligi va boshqalar) ni ham ijobiy tomonga o‘zgartira oladi.

A.Tog‘ri- 81,8%    B.Unday emas- 9,1%    C.Balki- 9,1%

2. Majburiy tibbiy sug‘urtani amaliyotga kiritish mumkinmi?

A.ha- 22,7%    B.Yo‘q chunki katta mablag‘ talab qiladi- 22,7%

C.Yo‘q negaki, hammani majburlab, sug‘urtalashni imkon yo‘q- 54,5%

3.Tibbiy sug‘urta sohasida dunyo amaliyotida asosan ikki turdag‘ tibbiy sug‘urta: ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug‘urta amal qiladi. Sizningcha qaysi sug‘urtani amaliyotga tadbiq qilgan yaxshiroq ?

A.Majburiy sug‘urta- 33,3%    B.Ixtiyoriy sug‘urta- 66,7%

4. Aholining zaif qatlamlarida yuqori malakali tibbiy xizmatlardan foydalanish uchun moddiy imkoniyat bo‘lmay qolishi mumkin. Bunday holatlarni oldini olish uchun nima qilish kerak ?

A.Aholi majburiy tibbiy sug‘urtalangan bo‘lishi kerak. Shundagina oldi olinadi.- 54,5%

B.Ixtiyoriy tibbiy sug‘urtalangan bo‘lishi kerak- 36,4%

C. Davolanish uchun kredit olish kerak.- 9,1%

5. Misol uchun, mijoz 200 ming so‘m sug‘urta mukofotini to‘laydigan bo‘lsa, o‘rtacha hisobda unga 1 mln.so‘mlik tibbiy xizmat ko‘rsatiladi va bu mablag‘ sug‘urta kompaniyasi tomonidan qoplab beriladi. O‘z-o‘zidan sug‘urta kompaniyasi sarflagan ortiqcha summasini yana mijozlarni chaqirish orqali qoplab olishga harakat qiladi. Natijada, sug‘urta kompaniyalari o‘z foydasi uchun xizmat sifatini oshiradi. Siz bunga qanday qaraysiz ?

A. Tibbiy sug‘urta har ikkala tomon uchun ham manfaatli.- 68,2%

B. Sug‘urta kompaniyasi zarar ko‘radi.- 18,2%

C. Sug‘urtalangan aholi zarar ko‘radi.- 13,6%

6. Majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etish natijasida, shifoxonalarning moddiy ahvoli yaxshilanadi. Natijada, xodimlarga yuqori maosh to‘lanadi. Oldingidek bemorlarning cho‘ntagiga «ko‘z tikilmaydi» . Asosiy e’tibor uning sog‘lig‘ini tiklashga qaratiladi. Ikkinchchi ijobiy tarafi tibbiyot muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat kuchayadi. Bunda ular ko‘proq bemorlarga xizmat ko‘rsatish uchun sifatni oshirishga harakat qilishadi: moddiy-texnik bazani yaxshilash, malakali kadrlarni jalb qilishga urinishadi.

A.Ha, albatta- 63,6%    B. Balkim- 31,8%    C.Yo‘q- 4,5%

7. Sug‘urta tovoni to‘lovi Sug‘urtalovchi tomonidan tibbiy va boshqa xizmatlarni ko‘rsatish uchun Sug‘urtalangan shaxsga tibbiy va boshqa xizmatlar ko‘rsatgan assistans xizmatiga pul mablag‘larini o‘tkazish yo‘li bilan (15 bank kuni davomida) amalga oshiriladi.

A. Ha bu vaqt yetarli- 77,3%    B. Yo‘q . bu vaqt ko‘p- 22,7%

8. Davlat tibbiy sug‘urtasi tizimiga xususiy tibbiyot tashkilotlarini ham jalb etish tibbiy xizmatlar bozorida raqobat muhitini rivojlantira oladimi?

A.Ha – 81,8%    B.Yo‘q- 18,2%

9. Fransiyada sug‘urtalangan shaxslarning farzandlari va turmush o‘rtoqlari ham nafaqa olish huquqiga ega.Bu qanchalik to‘g’ri?

A. To‘g’ri - 18,2%    B. To‘g’ri emas, negaki .... - 81,8%



10. Germaniya dunyodagi eng qadimgi milliy ijtimoiy tibbiy sug‘urta tizimiga ega. Davlat tibbiy sug‘urtasi bo‘yicha to‘lanadigan badallar shaxsning daromadidan kelib chiqsa, xususiy tibbiy sug‘urta badallari shaxsning yoshi va sog‘lig‘ining holatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Sizning fikringizcha bu...?

A. To‘g’ri.....- 81,8%    B.Noto‘g’ri.....-18,2%

11.Majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etish....?

A.Tibbiy xizmat sifatini oshishiga olib kelib, fuqarolarning malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini to‘laqonli amalga oshirishda yordam beradi. -70,3%

B.Tibbiy xizmat narxining qimmatlashuviga olib keladi.- 13%

C.Davlat budgetining xarajatlari ko‘payishiga olib keladi.-16,7%

12.Majburiy tibbiy sug‘urta joriy etilganda.....?

A. Byurokratizm kamayadi.- 54,5%

B. Davlat boshqaruvi qiyinlashadi.- 13,2%

C.Inflatsiyani keltirib chiqaradi. -32,3%

13. Majburiy tibbiy sug‘urta joriy qilinsa : “Shifokor bemorning sog‘ligiga qayg‘uradi uning jo‘ntagiga emas” iborasi qay darajada to‘g’ri ?

A.Ha ,albatta.....-36,7%    B.Yo‘q.....- 26,8%    C.Ta’sir qilmaydi- 36,5%

14. Majburiy tibbiy sug‘urtaga keladigan bo‘lsak, bunday sug‘urta turi O‘zbekistonda mavjud emas, biroq 2018-yil 9-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o’tkazilgan videoselektor yig‘ilishida mamlakatimizda majburiy tibbiy sug‘urta tizimini joriy etish zarurligi ta‘kidlangan edi, shu sug‘urta joriy qilinishi to‘g’rimi ?

A.ha -58,7%    B.yo‘q....- 19,7%    C.Buni iloji yo‘q- 21,6%

15. 2021 yil 1 iyuldan 2022 yil yakunigacha bo‘lgan muddatda Sirdaryo viloyatida davlat tibbiy sug‘urtasi tizimini tajriba-sinov tariqasida qo‘llanib kelinmoqda.Bu sug‘urta xalq uchun manfaatli bo‘layapti deb o‘ylaysizmi ?

A.ha... - 48,6%    B. yo‘q-15,1%    C. Hozircha yo‘q-36,3%

16. Fuqarolarni tibbiy sug‘ortalashning davlat tizimi, rivojlanayotgan davlatlar Ba‘zan tibbiy xizmatlarning zaruriy sifatini ta‘minlay olmaydi.Bu fikrga qo‘shilasizmi ?

A. ha-68,7%    B. Yo‘q- 31,3%

17. Tibbiy sug‘urta klassik sug‘urta turlaridan farqli o‘laroq, sug‘urta to‘lovi pulda emas, balki sug‘urtalovchi to‘lanadigan tibbiy va boshqa xizmatlarning majmuasi shaklida amalga oshiriladi ?

A.ha- 70,8%    B. yo‘q- 29,2%

18. Sug‘utalangan shaxsning xarajatlari davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi tomonidan qoplab beriladimi?

A. ha- 69,7%    B.yo‘q. Sug‘urta kompaniyalar yordamida qoplanadi.-30,3%

19. Hozirgi kunda tibbiy sug‘urta Sirdaryo viloyatida amaliyotga tadbiq qilib kelinmoqda, kelayotgan yilda Respublikaning barcha viloyatlariga tadbiq qilish ko‘zda tutilgan. Sizningcha bu samara beradimi ?

A.Ha – 70,9%    B.Yo‘q -29,1%

Bu so‘rovnama Facebook orqali amalga oshirildi, ilmiy izlanish natijasi sifatida aytishimiz kerakki, barcha respondentlar tibbiy sug‘urtani joriy qilish zarurligini ta‘kidlab o‘tishgan. Ayni vaqtda respublikada tibbiy sug‘urtaning ixtiyoriy turi mavjud. Bu sug‘urta turi asosan yuridik shaxslar tarafidan ixtiyoriy tarzda xarid qilib kelinmoqda. O‘zbekistonda ixtiyoriy tibbiy sug‘urta sanoqli tashkilotlar (Lukoyl, Nestle-O‘zbekiston va boshqalar) o‘z xodimlariga ijtimoiy paket tarzida taqdim etishadi. Demak, aholining salomatligi va uning himoyasi barcha uchun muhim omil va insonni qadirlash va uni ulug‘lash uchun mamlakatdagi olib borilayotgan tibbiy islohotlar o‘z ijobiy samarasini tez orada beradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar.

1.<https://m.kun.uz/uz/news/2019/05/24/tibbiy-sugurta-sogliq-kafolati-bololadimi>

2.<https://fayllar.org/mavzu-majbuliy-tibbiy-sugurta-bajardi-mm-78-guruh-talabasi-muza.html>

3.<https://uzbekinvest.uz/uz/news/tibbij-sugurta-soglik--kafolati-buloladimi>

4.<https://docs.google.com/spreadsheets/d/18wotFWpz0VUV7f9shqTZhcJM3cYvwXD3OLVVCgzLSGw/edit>



**КИЧИК БИЗНЕСНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН  
МОДЕЛЛАРИНИ ШАКЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ**

**Рашидов Раҳматулло Аълложонович**

Наманган муҳандислик технология институти

Кафедра мудири, доцент

Телефон: +998934989684

r.rashidov84@mail.ru

**АННОТАЦИЯ:** Ҳозирги вақтда тадбиркорлик фирмаларининг инновацион ривожланишини ўрганиш долзарбилигича қолмоқда. Мазкур мақолада кичик бизнеснинг инновацион ривожланишининг ҳудудий модели аҳамиятини очиб беради.

**КАЛИТ СҮЗЛАР:** кичик бизнес, тадбиркорк, инновация, ҳудудий модел, рақобат.

Бу жараён жуда мураккаб ва мунозарали, кўплаб масалалар етарлича ўрганилмаган, бу эса ҳудудий шароитларнинг ўзига хослигига адекват бўлган самарали моделлардан фаол фойдаланишини қийинлаштиради. Кичик бизнеснинг инновацион ривожланишининг ҳудудий модели қандай бўлиши керак, муваффақиятли модел пайдо бўлиши учун қандай даражада ва қандай турдаги инновацияларни яратиш кераклиги энг муҳим саволлардир. Шу билан бирга, ушбу ҳодисани ўрганиш бўйича мавжуд тадқиқот ёндашувлари қониқарсизлигича қолмоқда. Шундай қилиб, Ж. Мудиссон ва Е. Зукаускайте хусусийлаштириш ҳақиқатан ҳам жиддий ва муҳокама қилинадиган муаммо эканлигини кўрсатади, бироқ, ҳудудий инновацион моделларни кўллаш соҳасидаги ўзига хос усуслар ва методологиялар бир хиллигича қолмоқда [1].

Кичик корхоналарнинг унумдорлиги ва рақобатдош устунликлари микро, мезо ва макро даражадаги омиллар таъсирида ишбилармонлик муҳитининг ҳолатига қараб шаклланади. Глобаллашаётган иқтисодиётда ишлаб чиқариш омилларининг ҳаракатчанлиги ва мавжудлиги сезиларли даражада ошганига қарамай, корхоналарнинг жойлашуви иқтисодий фаолиятнинг маҳаллийлашуви ва ҳудудий концентрацияси оқибатларини келтириб чиқарадиган ижтимоий-иктисодий ва технологик ривожланиш манбаи сифатида ҳамон алоҳида рол ўйнайди. Кичик бизнесни ривожлантариш учун маълум даражада қимматли ва ноёб бўлган ўзига хос моддий ва номоддий ресурслар, малака ва қобилиятларнинг мавжудлиги билан боғлиқ ҳудудий шароитлар барқарор рақобатдош устунликларга эга бўлиш учун имкониятлар яратади, кичик бизнес эса шундай бўлиши мумкин, бу стратегия ва тактикани танлашда уларга асосланади.

Ҳудуд кичик корхоналарнинг рақобатбардошлиги манбаларининг келиб чиқиши маркази бўлиб, уларнинг барқарор рақобатдош устунликлари асосан маҳаллий ҳудудда яратилган. Бу шаклланишининг ўзига хос хусусиятлари билан боғлиқ бўлган ҳудудларда қуидаги ноёб хусусиятларнинг мавжудлиги билан боғлиқ: 1) қўлланиладиган ишлаб чиқариш омиллари мажмуи; 2) ҳудудий бозорлардаги талаб ҳолати; 3) агломерациянинг ташки таъсири (маҳаллийлашув ва урбанизация таъсири); 4) интеллектуал капитал, янги билим ва технологияларни яратиш ва тарқатиш тезлиги; 5) асосий ваколатлар ва қобилиятларни ривожлантаришга, хулқ-атвор стратегиясини танлашга, рақобатбардош ҳаракатларга ва ҳамкорликдаги ўзаро муносабатларга таъсир қилувчи бизнес муҳити сифатининг кучли ва заиф томонлари; 6) кичик корхоналар учун маҳсулот ишлаб чиқариш ва сотиш жойларининг кўп даражада мос келиши, бу эса яратилган қийматларнинг, шунингдек ишлаб чиқариш ва муомала харажатларининг кичик бизнесни ривожлантаришнинг ҳудудий шароитларига боғлиқлигини оширади.

Кичик бизнеснинг фазовий ривожланиш хусусиятларини таҳлил қилиш учун иқтисодий ва маданий парадигма доирасида ресурс-динамик ёндашувдан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга. Ҳозирги вақтда ресурс ёндашуви ва динамик қобилиятлар концепциясини қўллашда услубий муаммолар, қарама-қаршиликлар ва номувофиқликлар сақланиб қолмоқда. Муаммо шундаки, улар кичик бизнеснинг фазовий ривожланиш қонуниятлари ҳақидаги билимларни кенгайтириш учун зарур шарт-шароитларни яратадиган кўплаб муҳим услубий воситаларни ўз ичига олган бўлса-да, улар индивидуализм методологиясига асосланади ва уларнинг таҳлилий тузилиши ҳали аниқ тизимлаштирилмаган [2].



Кичик бизнеснинг фазовий ривожланишини таҳлил қилишда таклиф этилаётган қийматга йўналтирилган ресурс-динамик ёндашувнинг энг муҳим ғояси шундан иборатки, унинг барқарор рақобатдош устунликларини шакллантириш рақобат муҳитида эмас, балки унинг ишлаш механизмида чуқур ички сабаблар билан боғлиқ. Ушбу ички сабабларни фақат ноёб (асосий) ресурсларнинг мавжудлиги билан чекламаслик керак, улар кичик бизнеснинг динамик имкониятларини, унинг рақобатбардош салоҳиятини ривожлантириш ва улардан фойдаланишнинг тизимли жараёнлари билан ҳам боғлиқ.

Кичик бизнеснинг рақобатбардош салоҳияти бизнес муҳитидаги ўзгаришларга мувофиқ бир-бирини тўлдирувчи ресурслар ва жараёнларнинг комбинациясини шакллантириш қобилиятини ифодалайди. Бу иккита компонентнинг ўзаро таъсири натижасида юзага келадиган янги сифат ҳолатини тавсифлайди - ресурслар ва кичик бизнеснинг ўзгариш қобилияти, рақобатдош устунликларга эришиш учун ресурслар имкониятларидан фойдаланишга имкон берадиган муайян хатти-ҳаракатлар моделини яратиш. Бундай ҳолда пайдо бўладиган кичик бизнеснинг хатти-ҳаракати модели - бу ички тузилманинг тамойиллари ва технологиялари, бизнес муҳити обьектлари билан ўзаро муносабатлар, ресурсларни жалб қилиш, бирлаштириш ва улардан фойдаланиш усуслари ҳисобланади. Кичик бизнеснинг хатти-ҳаракатлари бизнес муҳити имкониятлари коридорида кўпроқ ҳаракатчанлигини кўришимиз мумкин. Моделдан фойдаланиш жараёнида натижалар ишлаб чиқарилади. Кичик бизнеснинг рақобатбардош салоҳиятини ривожлантириш шакллантирувчи ва чекловчи кучларнинг ўзаро таъсири натижасида юзага келади.

Ресурс-динамик ёндашув доирасида кичик бизнес ресурсларининг қуидаги таснифини ажратиш мумкин.

1. Асосий манбалар:

1.1. Ҳудуд - табиий ресурслар ва географик жойлашуви (табиий географик ресурслар).

1.2. Вақт вақтингачалик манбалар: ҳаётнинг ҳудудий ритмлари, имкониятлар, таҳдидлар ва вақт синовларининг вақтингачалик коридори.

2. Махсус ресурслар:

2.1. Моддий-техника ресурслари - ишлаб чиқариш ва технологик (ишлаб чиқариш бинолари, асбоб-ускуналар), молиявий ва инвестиция ресурслари.

2.2. Номоддий ресурслар:

- ижтимоий-маданий ресурслар – маданий ва қадрият йўналишлари, бошқарув одатлари ва анъаналари, маданий-тариҳий мерос;

- ташкилий ресурслар (капитал), кичик бизнес субъектларининг ташкилий-бошқарув ва институционал-қонуний тартибга солиш ва маркетинг фаолиятини сифати;

- инновацион ресурслар - интеллектуал ресурслар (билимлар), патентлар ва ахборот ресурслари;

- минтақадаги кичик бизнес секторининг имиджи, бренди ва обрўси.

2.3. Инсон ресурслари - меҳнат ва тадбиркорлик ресурслари (уларнинг таркиби, сифат ва миқдорий хусусиятлари), малака ва касбий маҳорат.

3. Ресурсларни тақдим этиш:

- ишлаб чиқариш инфратузилмаси ресурслари (муҳандислик, транспорт ва бошқалар);

- инновацион-тадбиркорлик инфратузилмаси ресурслари (таълим, инновацион-технологик, консалтинг ва бошқалар);

- ўрта ва йирик бизнес ресурслари.

4. Стратегик ресурслар - стратегик мақсадларга эришишга ёрдам берадиган ноёб, эксклюзив ва қимматли ресурслар (асосий, ўзига хос ва қўллаб-куватловчи ресурсларнинг таркибий қисмлари) - барқарор рақобатдош устунликлар.

Ресурс-динамик ёндашув, анъанавий ресурс ёндашувидан фарқли ўлароқ, ресурслар ва қобилияtlар тушунчаларини ажратишни ўз ичига олади, динамик қобилияtlар концепциясига мувофиқ, ташкилий ва бошқарув омилларига барқарор рақобатдош устунликларни яратишга устувор аҳамият беради, статик ва динамик жиҳатларни ажратади, қобилият ва тартибларни статик ва динамикга ажратади [3].

Ҳозирги вақтда қобилияtlарни таснифлашда турли хил ёндашувлар мавжуд, кўплаб муаллифлар уларнинг иерархиясига эътибор беришади, оддий, мураккаб, операцион ва бошқаларни ажратиб кўрсатишади, динамик қобилияtlарга эса юқори даража берилади. Ушбу тадқиқотнинг мақсадлари учун ташкилий иерархиянинг кўтарилишини тавсифловчи



кичик бизнес имкониятларининг уч даражали иерархиясини кўриб чиқиш муҳимдир - операциялардан стратегик бошқарувгача:

1) операцион қобилиятлар - кўпчилик кичик корхоналарга хос бўлган ваколатларга мос келади;

2) "асосий" (илдиз) қобилиятлар - рақобатдош устунликларнинг асоси бўлиб хизмат киладиган "асосий" компетенцияларни шакллантиради;

3) динамик қобилиятлар - компетенцияларнинг янгиланиши ва янги ташкилий компетенцияларнинг шаклланишини таъминлайди.

Динамик қобилиятларни қуидагича таснифлаш мумкин:

- кичик бизнес ресурсларини а) тан олиш, б) фойдаланиш ва с) қайта конфигурация қилиш тартиб-қоидаларини амалга ошириш қобилияти;

- қобилиятлар а) мавжуд ресурс салоҳиятини янги муаммолар ва ташқи вазиятларга мослаштириш; б) инновацияларни амалга ошириш, янги ресурс салоҳиятини яратиш ва инновацион маҳсулотлар ишлаб чиқариш.

Таҳлил шуни кўрсатадики, кичик бизнеснинг рақобатбардош салоҳияти унинг таркибий элементларининг тўрт босқичли иерархияси асосида шаклланади. Рақобат салоҳиятининг турли тузилмавий даражалари элементлари бўлган омиллар ўртасида ўзаро (икки даражали) муносабат мавжуд бўлиб, бунда иқтисодий ва технологик жараёнларни амалга оширишда тадбиркорлик омилининг алоҳида роли намоён бўлади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. 232. Moodysson, J., Zukauskaite, E. Institutional Conditions and Innovation Systems: On the Impact of Regional Policy on Firms in Different Sectors. *Regional Studies*. 2014. V. 48. 1.
2. 117. Романенко, Е., Бирюков, В. Ресурсно-ориентированный подход к формированию потенциала развития сектора малого предпринимательства / Е. Романенко, В. Бирюков // The XII International Academic Congress «Science, Education and Technology in the Modern World», Massachusetts, Cambridge, USA, 18–20 April 2015. Harvard University Press. 2015. V. 3. pp. 225–229.
3. 185. Biryukov, V.V. Romanenko, E.V., Plosconosova, V.P. Territorial mechanisms of innovative development of small and medium-sized business sector: A value-oriented approach / V.V. Biryukov, E.V. Romanenko, V.P. Plosconosova // Indian Journal of Science and Technology. 2016. V. 9 (37). pp. 23–30.



## ОСОБЕННОСТИ ПЕНСИОННЫХ РЕФОРМ В СТРАНАХ МИРА

Турсунов Жахонгир Пулатович  
доцент, PhD Банковско-финансовая академия  
Республики Узбекистан

**Аннотация.** Автор представляет критический анализ национальных систем пенсионного обеспечения в развивающихся странах с неразвитыми рыночными отношениями, доминированием государства в экономике этих стран, влияние демографических факторов, таких как снижение рождаемости, рост доли нетрудоспособного населения, увеличение продолжительности жизни на формирование и поддержание финансовой устойчивости пенсионных систем

**Ключевые слова:** реформирование пенсионной системы, продолжительность жизни, страховые пенсионные взносы, финансовая устойчивость, накопительная система, демографические факторы.

Проблемы адекватности систем пенсионного обеспечения уровню политического, социального и экономического развития страны, развития механизмов и инструментов поддержания их финансовой устойчивости всегда вызывали повышенный интерес в зарубежной экономической литературе. В связи с чем, целесообразно рассмотреть опыт реформирования систем пенсионного обеспечения в странах с динамично развивающимися экономиками, неразвитыми рыночными отношениями, еще не сформировавшимися окончательно институтами и доминированием государства в общественной сфере и экономике страны. Этим критериям соответствуют некоторые азиатские страны, такие как Китай, Корея, Япония и ряд других. Однако исследование опыта европейских стран и стран Северной Америки достаточно полезен для более глубокого и адекватного понимания тех направлений, методов и способов реформирования пенсионных систем, которые доказали свою эффективность в «старом свете».

Как известно, в основе всех причин дестабилизации рынков труда и пенсионных систем практически всех экономик мира лежат демографические факторы и одним из них является снижение рождаемости, что закономерно ведет к росту доли нетрудоспособного населения. Так, по данным ряда исследователей, в период с 1975 по 2005 годы или за 30 лет количество родившихся детей, приходящихся на одну женщину фертильного возраста сократилось в Африке с 6,72 до 4,97; в Азии – с 5,08 до 2,47; в Европе – с 2,16 до 1,40; в Северной Америке – с 2,01 до 1,99 [1].

Вторым важнейшим демографическим фактором является рост продолжительности жизни. По данным прогнозов экспертов, за период с 2005 по 2050 годы или за 45 лет средняя продолжительность жизни в Африке увеличится с 49,1 до 65,4 лет; в Азии с 67,3 до 77,2 лет; в Европе с 73,7 до 80,6 лет; в Северной Америке с 77,6 до 82,7 лет [1]. Эти два демографических фактора особенно важны для выбора модели реформирования программ социального страхования в странах с распределительными системами финансирования, так как именно эти системы в наибольшей степени подвержены влиянию демографических факторов. В этих условиях, как считают эксперты, именно повышение пенсионного возраста является наиболее эффективным способом решения проблем финансовой сбалансированности пенсионных систем, что и нашло свое отражение в обширных исследованиях этой проблемы со стороны ведущих ученых мира.

Экономики азиатских стран, как экономики, развивающиеся наиболее высокими темпами, всецело подвержены тем же проблемам, которые испытывают сегодня на себе экономики Европы и Северной Америки. В Японии, где наиболее высокая продолжительность жизни, финансовые проблемы обеспечения пенсионной системы сегодня стоят особенно остро. Резкое обострение этих проблем ожидается в ближайшие десятилетия в Китае, Корее и Сингапуре. Прогнозируемые темпы старения населения азиатских стран уже сегодня опережают аналогичные показатели в других странах, что влечет за собой такие последствия как рост дефицита пенсионной системы, снижение устойчивости бюджетов этих стран и обострение проблем на рынке труда. Прогнозная динамика доли расходов на пенсионное обеспечение в ВВП ряда стран представлен в таблице 1.



Таблица 1

**Прогноз динамики доли расходов на пенсионное обеспечение в ВВП ряда стран, в процентах [2]**

Страны	2014 г.	2050 г.
<b>Индонезия</b>	0,5	1,0
<b>Непал</b>	0,5	1,0
<b>Малайзия</b>	1,0	2,0
<b>Камбоджа</b>	1,0	2,2
<b>Сингапур</b>	1,0	2,3
<b>Бангладеш</b>	1,2	2,5
<b>Шри Ланка</b>	1,5	2,7
<b>Гонконг</b>	1,3	3,0
<b>Австралия</b>	5,0	7,0
<b>Корея</b>	2,5	7,1
<b>Тайланд</b>	5,1	11,2
<b>Вьетнам</b>	3,1	11,4
<b>Япония</b>	12,2	13,2
<b>Новая Зеландия</b>	7,5	13,9
<b>Китай</b>	5,1	14,2
<b>Монголия</b>	8,9	27,5

Так, по прогнозам экспертов, доля затрат на пенсионное обеспечение в ВВП к 2050 году по сравнению с 2014 годом вырастет в Малайзии с 1% до 2%, в Сингапуре – с 1% до 2,3%, в Гонконге – с 1,3% до 3%, в Австралии – с 5% до 7%, в Корее – с 2,5% до 7,1%, в Новой Зеландии – с 7,5% до 13,9%, в Китае – с 5,1% до 14,2%, в Монголии – с 8,9% до 27,5%.

Традиционные рыночные регуляторы, обеспечивавшие на протяжении последнего столетия поддержание финансовой устойчивости пенсионных систем стран Азии сегодня уже не работают. А накопительные системы как инструмент поддержания финансовой устойчивости пенсионных систем в этих странах появились сравнительно недавно. Кроме того, в этих странах только начинают опробовать себя такие инструменты, как обязательное пенсионное страхование, софинансирование граждан в формировании своей пенсии, применение пенсионных формул в зависимости от размера взносов и уровня заработной платы. Однако основную роль в поддержании финансовой устойчивости пенсионных систем стран Азии специалисты видят в увязке ее с пенсионным возрастом населения этих стран, предотвращения тем самым нарушения принципов «солидарности поколений». Так, авторы «автоматически настраиваемых механизмов» (ААМ) пенсионных систем стран Азии выделяют такие характеристики применяемых инструментов, как необходимость обратной связи, их измеримость и сопоставимость с аналогичными показателями в других развитых странах. Иначе говоря ААМ, это не просто система пенсионирования или реализации гражданами своих пенсионных прав, а сложная и многофункциональная система взаимосвязанных показателей, отклонение одного из которых автоматически ведет к корректировке других параметров этой системы в целях сохранения финансовой устойчивости пенсионной системы. Например, в Финляндии, Португалии и Германии коэффициент ожидаемой продолжительности жизни напрямую связан с факторами финансовой устойчивости системы пенсионного обеспечения. Более того, в США эта взаимосвязь начинает реагировать автоматически, когда социальные пособия автоматически уменьшаются в связи с исчерпанием пенсионного резерва. В Швеции, Италии, Польше и Латвии за счет применения схемы «условно установленных взносов» и изменяющегося коэффициента аннуитетов, поддерживается соответствие между резервом условной пенсии и текущей величиной ожидаемых пенсионных выплат.

Таким образом, классических в чистом виде традиционных систем пенсионного обеспечения, каковые разработаны в теоретическом плане – распределительная и накопительная – в реальной экономике не существует. Национальные экономики используют элементы обеих систем в зависимости от доминирования макроэкономических, демографических или политических факторов. Поэтому предлагаемая классификация направлений реформирования национальных пенсионных систем на тактические



и инструментальные является вполне целесообразной. Так, обобщая тактические направления реформирования национальных систем пенсионного обеспечения в социально ориентированных рыночных экономиках, представляется возможным выделить в качестве приоритетных следующие:

- преимущественное использование «автоматически настраиваемых механизмов» (AAM), как сложной и многофункциональной системы взаимосвязанных показателей, отклонение одного из которых автоматически ведет к корректировке других параметров этой системы в целях сохранения финансовой устойчивости пенсионной системы (страны Европы, Северной Америки, Австралии);
- преимущественное использование «ручного» управления, с периодическими корректировками на уровне законодательства параметров функционирования национальной системы пенсионного обеспечения в зависимости от динамики макроэкономических, демографических и политический процессов (страны Южной Америки, Юго-Восточной Азии, Китай, Россия).

**Список литературы:**

1. Jousten,A. Public Pension Reform: A Primer /IMF Working Paper Fiscal Affairs Department: Public Pension Reform: A Primer Prepared.Authorized for distribution by Michael Keen. February 2007. – P. 36.
2. Arbatli, E., Feher, C., Ree, J., Saito, I., Soto, M. Automatic Adjustment Mechanisms in Asian Pension Systems. – IMF Working Paper Asia and Pacific Department. December 2016, pp. 28.



## КОНСОЛИДАЦИЯЛАШГАН МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ ТУЗИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Хамраев Элёрбек Эркинович

Ўзбекистон Республикаси

Банк-молия академияси тингловчиси

**Аннотация:** Халқаро стандартлар асосида йирик корхоналар консолидациялашган молиявий ҳисоботларини тузиш орқали хорижий инвесторларнинг ҳисоботга ишончлилигини оширади ҳамда инвесторларнинг республикамиизда улушини ошириш имконига эга бўлади. Мазкур тезисда консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузишнинг аҳамияти ва хусусиятлари очиб берилган.

**Калит сўзи:** молиявий ҳисобот, БХМС, бухгалтерия ҳисоби, консолидациялашган ҳисобот.

Жаҳон мамлакатлари тажрибасидан маълумки, корхоналарни самарали бошқаришда кўпроқ уларни йирик гурухларга бирлаштирган ҳолда тузиш мақсадга мувофиқдир. Бунда икки ёки ундан ортиқ компания молиявий-иқтисодий жиҳатдан бир компания остида бирлашади.

Корхоналарнинг бирлашуви деб, алоҳида бир корхонанинг иккинчисига қўшилиши ёки бир корхона иккинчи корхонанинг соф активлари ва ишлаб чиқариш фаолияти устидан назоратни сотиб олиш оқибатида бир иқтисодий бирликка қўйилишига айтилади. Бу, асосан, бирор-бир фаолият билан шуғулланаётган компаниянинг эгалари томонидан ушбу компания таркибида бир нечта кичик мустақил корхоналарни ташкил этишга бўлган ҳаракатидан келиб чиқади. Бунинг натижасида солик тўловлари бўйича муайян тежаш юзага келади.

Хўжалик юритувчи субъектлар гурухининг бош корхона назорати остида бирлашуви юз берса, консолидациялашган молиявий ҳисобот тузилади.

Молиявий ҳисобот консолидацияси (консолидация инглизча consolidate сўзидан олинган бўлиб, бирлаштироқ, мустаҳкамламоқ деган маънени англатади) бу юридик жиҳатдан мустақил, аммо иқтисодий ва молиявий томондан ўзаро боғлиқ икки ёки ундан ортиқ компаниялар ҳисоботларини бирлаштиришdir. Консолидациялашган тушунчаси тарли хил адабиёт, кўлланмаларда турлича аталади, масалан, консолидациялашган умумлашган, умумлаштирилган, жамланган ва ҳокозо.

“Консолидациялашган молиявий ҳисоботни тузишнинг асосий мақсади – корхона фаолияти натижаларини ва молиявий ҳолатини тулигича очиб бериш ҳамда бош ва шўъба хўжалик корхоналари фоалиятини ягона хўжалик ташкилотидек қилиб кўрсатиб беришдан иборатdir”[1]. Консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузиш ва шўъба хўжалик жамиятларига қўйилган инвестициялар ҳисоби 8–сонли БХМС “Жамланган молиявий ҳисоботлар ва шўъба хўжалик жамиятларига сармояларни ҳисобга олиш” номли Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби миллий стандарти билан тартибга солинади.

Шунга кўра “Жамланган молиявий ҳисоботлар – ҳисобот санасидаги молиявий аҳволни ва хўжалик юритувчи жамиятлар гурухининг ҳисобот даври учун молиявий натижаларни акс эттирувчи кўрсаткичлар тизими”[2].

Консолидациялашган молиявий ҳисобот иқтисодий ва молиявий жиҳатдан бир – бирига боғлиқ бўлган бир нечта компанияларнинг гурухи хусусида умуний хусусдаги маълумотларни олишни таъминлаб, ушбу компаниялар гурухининг фаолияти натижалари ҳамда истиқболини ўзида акс эттиради.


Консолидациялашган ҳисобот учун эса қуйидагилар алоҳида акс эттирилиши керак:

- жамиятлар бош ва шўъба корхоналари гурухлари ўртасидаги битимлар;
- айрим жамиятларнинг бирлашишидаги ҳисоботида ўзгаришлар;
- консолидациялашган баланснинг янги позицияларнинг умумлашиши ва молиявий натижлар ҳисоботи, шунингдек, уларнинг йиллар бўйича ўзгариши натижасида юзага келадиган ҳажмлари;
- яширин заҳира ва сарф-ҳаражатлар ҳажми ҳамда ҳисобга олишни, шунингдек, фирмалар нархи ва ҳокозоларни аниқлаш услуби.

Ҳисобот бундай ахборотнинг ички ва ташқи истеъмолчилари-корхоналар эгалари, бош



ва шўъба корхоналари гуруҳи ҳамда кенгашлар раҳбарлари, унинг таркибига кирувчи жамиятлар ходимлари, инвестор ва кредиторлар, маҳсулот етказиб берувчилар, ҳаридорлар, давлат, шунингдек, бошқа манфаатдор фойдаланувчилар учун мўлжалланган. Яъни, консолидациялашган молиявий ҳисоботнинг асосий вазифаларини таърифлаш мумкин.



**1-расм. Консолидациялашган молиявий ҳисоботнинг асосий вазифалари**

**Ахборот** вазифаси. Айнан мана шу вазифа бош ва шўъба корхоналари гуруҳи бўйича ҳар қандай бош ва шўъба корхоналари гуруҳи ва корпоратив бирлашмалар, кичик миллий компаниилар учун ахборот олиш имконини беради.

**Назорат қилиш** вазифаси. Консолидациялашган молиявий ҳисоботдан бош корхонанинг у ёки бу жараёнларини назорат қилиш восита сифатида фойдаланиш мумкин. Бундан ташқари, у ҳукумат органлари томонидан иирик корпоратив бош ва шўъба корхоналари гурухлар фаолиятини назорат қилиш имконини беради.

**Режалаштириш ва тартибга солиш** вазифаси. Ташқи истеъмолчилар учун, масалан, ушбу вазифа шундан иборатки, консолидациялашган молиявий ҳисоботдан бош ва шўъба корхоналари гуруҳи фаолиятини режалаштириш, унинг ичидаги у ёки бу жараёнларни тартибга солиш, молиялаштириш ва даромадларни молиявий режалаштириш, ички дивидендларни тўлаш учун фойдаланилади.

**Солиштириш ва таҳлил қилиш** вазифаси. Бу вазифа Бош ва шўъба корхоналари гуруҳи ичидаги айрим жамиятлар ва баъзи Бош ва шўъба корхоналари гурухлари ўртасида уларнинг фаолияти ва иқтисодий аҳволини қиёсий таҳлил қилиш имконини беради.

Умуман олганда Консолидациялашган молиявий ҳисобот – фойдаланувчилар учун ягона хўжалик юритувчи субъект сифатида бир нечта шўъба корхонаси бўйича ахборотларни умумлаштириб беради. “Консолидациялашган молиявий ҳисобот – фойдаланувчилар учун ягона хўжалик юритувчи субъект сифатида бир нечта шўъба корхонаси бўйича ахборотларни умумлаштириб беради”[3].

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ибрагимов А., Очилов И., Қўзиев И., Ризаев Н., “Молиявий ва бошқарув ҳисоби”. Ўқув қўлланма; Тошкент – 2008.
2. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги томонидан 1998 йил 14 октябрда тасдиқланган 8-сон “Жамланган молиявий ҳисоботлар ва шульба хўжалик жамиятларига сармояларни ҳисобга олиш” номли бухгалтерия ҳисоби миллий стандарти, 4-банд.
3. Грибановский А.М., "Корпоративная финансовая отчетность. Международные стандарты", № 2, 2010 г.



## МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАР ТҮҒРИСИДАГИ ҲИСОБОТНИ МХХС ТАЛАБЛАРИ АСОСИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Мавлонов Нурбек Ихтиёр ўғли  
Ўзбекистон Республикаси банк-молия  
академияси тингловчиси  
тел: 90 444-99-55

**Аннотация:** Мазкур тезисда юртимизда молиявий ҳисоботларнинг халқаро стандартларини жорий этилиши билан корхона ва ташкилотларда молиявий натижалар түғрисидаги ҳисоботларни халқаро стандартларга мувофиқлаштириш масалалари кўриб чиқилган.

**Калит сўзлар:** Молиявий ҳисоботларнинг халқаро стандартлари (МХХС), молиявий натижалар, инвестиция, инвестициялар оқими.

Ўзбекистон Республикасида жамият тараққиётининг барча жабҳаларида, энг аввало иқтисодий соҳада ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва эркинлаштириш борасида аниқ дастур ишлаб чиқилган. Бу дастурнинг жорий этишдан кўзланган асосий мақсад – Янги Ўзбекистоннинг демократик ва бозор ислоҳотларини амалга ошириш, жаҳон хамжамиятига кенг интеграциялашуви ва барқарор олға бориши учун мустаҳкам замин яратишdir.

Республиканинг иқтисодий ва молиявий барқарорликка эришишида мухим омиллар бўлиб, ишлаб чиқариш хажмининг ўсиши, пул қадрсизланишини пасайтириш, экспорт хажмини ошириш ва бошқа шу каби макроиқтисодий ўсишни таъминлаш билан бирга мамлакатда фаолият юрита, тган ҳар бир корхона, фирма, компанияларнинг хўжалик субъектлари сифатида ривожлантиришни тақозо этади<sup>1</sup>.

Рақамли иқтисодиёт шароитида корхоналарнинг молиявий натижасининг белгиловчи мухим омил сифатида фойданинг ролини оширади. Чунки фойда корхоналарнинг келгуси равнақи, ишчи-хизматчиларнинг ижтимоий ҳимоялашни таъминловчи асосий манбадир. Шунингдек давлат бюджети даромадининг аксарият қисми ҳам фойдадан тўланадиган солиқ ҳисобидан тўлдирилади. Шу туфайли аҳамияти мухимлигини ҳисобга олган ҳолда молия органлари, солиқ инспекцияси, аудитор ва ички хўжалик (ҳисобчи, иқтисодчи) мутахассисларидан фойданинг шаклланиши ва ишлатилишини мунтазам назорат қилиб туриш талаб этилади.

Мазкур МХХСнинг мақсади молиявий ҳисоботдан фойдаланувчиларга ташкилотнинг келгуси пул оқимларининг суммаси, вақти ва ноаниклигини баҳолаш учун ўринли ва фойдали маълумот тақдим этадиган молиявий активларни ва молиявий мажбуриятларни молиявий ҳисоботда акс эттириш тамойилларини белгилашдан иборат.

Мазкур стандарт ташкилотнинг олдинги даврлардаги молиявий ҳисоботлари, шунингдек, бошқа ташкилотларнинг молиявий ҳисботи билан қиёсланишини таъминлаш мақсадида умумий мақсаддаги молиявий ҳисоботни тақдим этиш асосларини белгилаб беради. У молиявий ҳисоботни тақдим этишга нисбатан умумий талабларни, унинг тузилишига оид кўрсатмаларни ҳамда унинг таркибида доир минимал талабларни белгилайди.

Халқаро ташкилотларнинг мутахассисларини жалб этган ҳолда қуйидагилар бўйича тавсиялар ишлаб чиқиши:

МХХСни дастлаб ва келгусида қўллаш;

МХХС асосида молиявий ҳисоботни тузиш<sup>2</sup>.

Маълумот, агар уни тушириб қолдириш, нотўғри кўрсатиш ёки яшириш умумий мақсаддаги молиявий ҳисбот фойдаланувчиларининг муайян ҳисбот берувчи ташкилот түғрисидаги молиявий маълумот билан таъминлайдиган молиявий ҳисбот асосида қабул қиласидиган иқтисодий қарорларига таъсир кўрсатиши асосланган тарзда кутилса, мухим ҳисобланади.

Мухимлик маълумотнинг характеристи ёки миқдорий катталигига ёки ҳар иккисига

1 Вохобов А.В., Ибрагимов А.Т. «МОЛИЯВИЙ ТАҲЛИЛ» ДАРСЛИК, ТОШКЕНТ - «ЎЗБЕКИСТОН» - 2002

2 Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 24.02.2020 йилдаги ПҚ-4611-сон



ҳам боғлиқ. Ташкилот алоҳида олинган ёки бошқа маълумотлар билан биргаликдаги маълумотларнинг, умумий ҳолда, муҳимлигини молиявий ҳисобот контекстида баҳолайди.

*Изоҳлар* – молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда, фойда ёки зарар ва бошқа умумлашган даромад тўғрисидаги ҳисобот(лар)да, хусусий капиталдаги ўзгаришлар тўғрисидаги ҳисоботда ва пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисоботда тақдим этилган маълумотларга қўшимча маълумотларни ўз ичига олади. Изоҳларда ушбу ҳисоботда тақдим этилган моддаларнинг шарҳлари ёки тафсилотлари ҳамда ушбу ҳисоботда тан олинмаган моддалар тўғрисидаги маълумотлар ёритиб берилади.

*1-чизма. Молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисобот<sup>1</sup>.*

## Молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисоботда очиб бериладиган ахборотлар

**Савдо - сотикдан тушган соф тушум**

**Савдо - сотикнинг ялпи молиявий натижалари**

**Асосий фаолиятдан келадиган бошқа операцион даромадлари ва харажатлари**

**Асосий хўжалик фаолияти молиявий натижалари**

**Молиявий фаолиятга доир бошқа даромадлар ва харажатлар**

**Хўжалик умумий фаолиятининг бошқа молиявий натижаси**

**Фавқулотда фойда ва зарар**

**Ҳисобот давридаги соф фойда ёки зарар**

Агар маълумот молиявий ҳисоботнинг асосий фойдаланувчилари учун ушбу маълумотни тушириб қолдириш ёки нотўғри кўрсатиш каби таъсир кўрсатадиган тарзда тақдим этиладиган бўлса, у яширилган ҳисобланади. Муҳим маълумотнинг яширилишига олиб келиши мумкин бўлган ҳолатларга қуидагилар мисол бўлади:

(а) муҳим модда, операция ёки бошқа ҳодисалар тўғрисидаги маълумотлар молиявий

<sup>1</sup> Ҳамдамов Б.Қ., Исломов Ф. Р., Авлоқулов А. З. Молиявий ҳисобот ўқув қўлланма тошкент – 2008



ҳисоботда ёритиб берилган, лекин ишлатилган сўз бирималари ноаниқ ёки тушунарсиз;  
(б) муҳим модда, операция ёки бошқа ҳодисалар тўғрисидаги маълумотлар бутун молиявий ҳисоботда тарқоқ акс этган;  
(в) ўхшаш бўлмаган моддалар, операциялар ёки бошқа ҳодисалар ноўрин тарзда жамланган;  
(г) ўхшаш моддалар, операциялар ёки бошқа ҳодисалар ноўрин тарзда батагфисиллаштирилган; ва  
(д) муҳим маълумотлар муҳим бўлмаган маълумотлар орқали асосий фойдаланувчи қайси маълумотларнинг муҳимлигини аниқлай олмайдиган даражада яширилиши натижасида молиявий ҳисоботнинг тушунарлилиги камаядиган ҳолатларда.

Хуоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки, самарали молиявий натижалар ҳисоботини ташкил этиш ва амалга ошириш учун замонавий меъёрий-хуқуқий базани яратиш, корхона ва ташкилотларнинг иқтисодий фаолиятини хавфсизлигини, самарадорлигини ва қонунийлигини таъминлайди. Мазкур ҳисоботнинг шаффоф ва ҳолислиги таъминланса, хорижий инвестициялар оқимини янада ошири турган гап.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ш. Мирзиёев, ПҚ-4611-сон “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора – тадбирлар тўғрисида” 24.02.2020.
2. Ҳамдамов Б.Қ., Исломов Ф. Р., Авлоқулов А. З. Молиявий ҳисобот ўкув қўлланма тошкент – 2008
3. Воҳобов А.В., Ибрагимов А.Т. «МОЛИЯВИЙ ТАҲЛИЛ» ДАРСЛИК, ТОШКЕНТ - «ЎЗБЕКИСТОН» - 2002



## БЮДЖЕТЛАРАРО ҲИСОБЛАШУВЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Ҳайдарова Шахзода Авлвёровна  
Ўзбекистон Республикаси банк-молия  
академияси тингловчиси  
тел: 90 716-57-07

**Аннотация:** Мазкур тезисда бюджетлараро ҳисоблашувлар ҳисботларни такомиллаштириш ва назорат қилиш бўйича юртимизда олиб борилаётган амалий ишлар мухокама қилинган.

**Калит сўзлар:** Бюджет, бюджет ҳисоби, дотация, бюджет жараёни, давлат молиявий назорати.

Ўзбекистон Республикасида жамият тараққиётининг барча жабхаларида, энг аввало иқтисодий соҳада ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва эркинлаштириш борасида аниқ дастур ишлаб чиқилган. Бу дастурнинг жорий этишдан кўзланган асосий мақсад – Янги Ўзбекистоннинг демократик ва бозор ислоҳотларини амалга ошириш, жаҳон хамжамиятига кенг интеграциялашуви ва барқарор олға бориши учун мустаҳкам замин яратишdir.

Бюджетлараро муносабатлар бевосита бюджет ссудаси тушунчasi ва ушбу тушунча билан боғлиқ турли хил муносабатлар йифиндисидан шаклланади. Бюджет ссудаситушунчасини атрофлича ўрганиш бюджетлараро муносабатларнинг юзага келишида энг муҳим асосдир. Шундай экан бюджет ссудасига алоҳида таъриф беришимиз бюджетлараро муносабатларни тушунишимизнинг тамали сифатида қарашимиз нотўғри бўлмайди<sup>1</sup>.

Бюджет ссудаси – қайтариш шарти билан юқори турувчи бюджетдан қуий турувчи бюджетга, шунингдек давлат мақсадли жамғармаларига, резидент юридик шахсга ажратилган пул маблағларидир. Кўриниб турибдики, бюджет ссудаси юқори турувчи бюджет ташкилоти томонидан қуий турувчи бюджет ташкилотига ажратиладиган пул маблағлари факат кескин эътироф этилиши зарур булган қисми қуий ташкилот ҳам ўзлаштирилган ушбу маблағларни юқори турувчи ташкилотга қайтариб бериш шарти юклатилади. Бе эса ўз навбатида бюджетлараро муносабатларнинг юзага келишини қарз муносабатларининг юзага келишини тақозо этади.

Аслини олиб ўрганганимизда, бюджет ссудалари бюджет ташкилотларида даромадлар ва харажатлар ўртасида юзага келадиган вақтинчалик касса узилишларини қоплаб туриш учун юқори ташкилот томонидан қуий ташкилотга берилиши лозим бўлган пул маблағларидир. Аммо ушбу пул маблағларини йўналтириш, у устидан назоратни олиббориши, бевосита ҳукуқий меъёрий хужжатлар билан ҳам мустаҳкамлаб қўйилиши табиий албатта. Жумладан Қорақалпоғистон Республикаси бюджетига, маҳаллий бюджетларга бюджет ссудаларини бериш ва олинган бюджет ссудаларини сўндириш тўғрисидаги Низом фикримизнинг ёрқин ифодасидир. Ушбу Низомга мувофиқ бюджет ссудалари қуийдаги мақсадлар учун берилади:

- Даромадлар тушуми билан харажатларни амалга оширилиши орасидаги режалаштирилган вақтинчалик касса узилишини қоплашга;
- Даромадлар тушуми билан харажатларни амалга оширилиши орасидаги ҳақиқий вақтинчалик касса узилишини қоплашга;
- Бюджетларнинг режалаштирилган харажатларини мақсадли молиялаштириш схемаларини амалга оширилиши учун.

Бюджет тасдиқлангандан сўнг давлат ва маҳаллий солиқлар ва даромадлар тўғрисидаги, маъмурий-худудий бўлинишдаги корхоналар, ташкилотлар ва хўжалик бирлашмаларининг бўйсунишидаги ўзгаришлар, турли хилдаги бўйсунишдаги қурилиш обектлари ўртасида капитал қўйилмалар лимитларини қайтадан тақсимлашдаги ўзгаришлар бўйича қабул қилинган янги қонунлар, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари, Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг қарорлари қабул қилиниши натижасида алоҳида олинган бюджетларга ўзгаришлар киритилган ҳоллорда бюджет ижроси жараёнида юзага келадиган бюджетлар ўртасида ўзаро ҳисоб-китоблар бўйича муомалалар амалга оширилади.

1 М. Остонакулов, Бюджет ҳисоби, - Т.: «Талкин», 2008. 424 б.



### Бюджет ссудалари ҳисобини ташкил этишининг хусусиятлари

Бюджет ссудалари факат юқори бюджетдан қуи бюджетга берилиши

Молия органларида юқори бюджетдан қуи бюджетта бюджет ссудалари берилганда фоизлар ҳисобланмаслиги

Берилган ва олинган бюджет ссудаларини ўзаро ҳисоб китобларга (бериладиган дотация ва бошқалар ҳисобига) ўтказиш мумкинлиги

Бюджет ссудаларини молия йили доирасида қайтарилиши ва бошқалар

Бюджет тасдиқлангандан кейин қонунчиликка киритилган ўзгаришлар оқибатида қуи бюджетлардан юзага келган қўшимча даромадларни ундириш билан боғлиқ бўлган ўзаро ҳисоб-китобларга ўтказиладиган суммаларнинг миқдори, янги қонунчиликка биноан ҳисоблаб чиқилган тегишли даромад манбаи бўйича мазкур қуи бюджетта келиб тушган сумма билан ҳисобот йилида шу бюджетта ўшбу даромад манбаи бўйича келиб тушиши кўзда тутилган тушумлар суммаси ўртасидаги фарқ сифатида белгиланади.

Бюджет ташкилотлари, корхоналари ва хўжалик бирлашмаларини молиялаштиришни бир бюджетдан бошқа бюджетта ўтказишида ўшбу бюджет ташкилотлари, корхоналари ва хўжалик бирлашмалари бўйича йил бошидан бошлаб амалга оширилган харажатлар бюджетда кўзда тутилган ийллик ажратмаларнинг суммалари тўлиқлигича молиялаштириш амалга ошириладиган бюджетда акс эттирилиши керак.

Бир бюджетдан иккинчи бюджетта харажатларни ўтказилганда, юқори молия органи қуи молия органига бюджет ташкилотлари, корхоналари ва хўжалик бирлашмаларини бир бюджетдан молиялаштириш тўхтатилганлиги ва иккинчи бюджетдан молиялаштириш бошланганлиги белгиланган санани маълум қиласи.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, бюджет ташкилотлари ўртасида амалга ошириладиган муносабатлар умумий бюджет тизимининг борлигини таъминлайди. Юқорида келтириб ўтилган фикрлар, мулоҳазалар биргина бюджет ссудаси намунасида ўз аксини топди. Кўриниб турибдики, даромадлар ва харажатлар ўртасидаги узилишлар бюджет ташкилотларида кўп кузатилиши мумкин булган жараёндир. Бу эса ўз навбатида бюджет ташкилотларининг бир меъёрда ушлаб турилиши, уларнинг барқарорлигини таъминлаш учун бюджетлараро муносабатларнинг юзага келишига олиб келади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Бюджет Кодекси. ЎРҚ-360-сон. 26.12.2013. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. И.Н. Қўзиев, Ш.В.Ғаниев, А.С.Рамазонов Бюджет ҳисоби ва назорати: Дарслик/- Т.: «Ниҳол принт» ОҚ, 2022. 632 б.
3. М. Остонақулов, Бюджет ҳисоби, - Т.: «Талқин», 2008. 424 б.

1 И.Н. Қўзиев, Ш.В.Ғаниев, А.С.Рамазонов Бюджет ҳисоби ва назорати: Дарслик/- Т.: «Ниҳол принт» ОҚ, 2022. 632 б.



**БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА ИЧКИ АУДИТ НАТИЖАЛАРИНИ  
РАСМИЙЛАШТИРИШ ТАРТИБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ**

**Эрматов Азамат Ҳайитбоевич**  
Ўзбекистон Республикаси банк-молия  
академияси тингловчиси  
тел: 91 133-87-87

Ўзбекистон Республикасида бюджет назорати Молия вазирлиги томонидан тартибга солинади. Бюджет ташкилотларининг фаолияти Ўзбекистон республикасининг “Бюджет Кодекси”га асосан амалга оширилади. Ушбу Кодекс Ўзбекистон Республикасининг бюджет тизими бюджетларини шакллантириш, тузиш, кўриб чиқиш, қабул қилиш, тасдиқлаш, ижро этиш, давлат томонидан маблағ жалб қилиш ва бюджет тўғрисидаги қонун хужжатлари ижросини назорат қилиш соҳасидаги муносабатларни тартибга солади<sup>1</sup>.

Бюджет жараёни бюджетни режалаштиришга ва бюджет харажатларини батафсил бюджет таснифи ёрдамида тартибга солишга асосланган. Бюджет жараёнини амалга ошириш мураккаб бўлганлиги сабабли бюджет маблағларидан фойдаланиш самарадорлигини назорат қилишни такомиллаштириш зарур. Шунинг учун Ўзбекистон Республикасида давлат бюджети ижросини назорат қилишнинг энг муҳим турларидан бири бўлган бюджет маблағларидан фойдаланиш самарадорлигини текшириш ва ташкилотнинг фаолиятини доимий равища назорат қилиш учун бюджет ташкилотларида ички аудит хизмати жорий қилинди.

Бюджет ташкилотларида ички аудит хизматини самарали ташкил қилиш муҳим аҳамият касб этади. Ички аудит фаолиятининг энг муҳим томонларидан бири янги лойиҳаларни ишлаб чиқиш ва жорий этишда эҳтимолий ташқи ва ички рискларни аниқлаш ва таҳлил қилиш, шунингдек, риск даражасини пасайтириш ёки йўқотишлар имкониятини минималлаштиришга имкон берувчи тавсиялар ишлаб чиқиш ҳисобланади. Аммо кейинги йилларда бюджет ташкилотларида ички аудит хизматини самарали ташкил этишда ва такомиллаштиришда методологик муаммолар юзага келмоқда. Бу, ўз навбатида, бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби чегаралари кенгайиши жараёнида қўпгина услубий муаммоларини ҳал этишни тақозо этмоқда<sup>2</sup>.

Ички аудит хизмати фаолиятининг тамойиллари :

- Ички аудит хизмати ўз фаолиятини мустақиллик, холислик, қонунийлик, малакалик ва ахборот хавфсизлигини таъминлаш тамойиллари асосида амалга оширади.
- Ички аудит хизмати ўз фаолиятини амалга оширишда мустақилdir.
- Ички аудит хизмати ва унинг ходимлари ўз фаолиятини амалга оширишда, шу жумладан ички аудит тадбирларини ўтказиш ва унинг натижаларини расмийлаштиришда беғараз бўлиши ва холислик билан ёндашиши, манфаатлар тўқнашувига йўл қўймаслиги лозим.
- Ички аудит хизмати ўз фаолиятини қонунчилик хужжатларида белгиланган тартибда амалга ошириши ҳамда ваколатларидан четга чиқмаслиги лозим.
- Ички аудит хизмати ходимлари ўз фаолиятини амалга оширишда малакага эга бўлиши ҳамда мунтазам ўз малакасини ошириб бориши лозим.
- Ички аудит хизмати ходимлари ўз фаолиятини амалга оширишда олинган маълумотларни белгиланган тартибда сақлаши, улардан фаолиятидан ташқари ҳолларда фойдаланмаслиги ва давлат сири ҳамда бошқа сир сақланадиган маълумотларни ошкор этмаслиги лозим.

Ички аудит тадбири натижаларини расмийлаштириш:

- Ички аудит тадбири натижалари ички аудит тадбири ҳисботи шаклида расмийлаштирилади.
- Ички аудит тадбири ҳисботида ички аудит тадбири натижалари, таҳлиллар, кузатишлар, таклиф ва тавсиялар, чора-тадбирлар режаси ҳамда ички аудит обьекти

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Бюджет Кодекси” (ЎзР 26.12.2013й. ЎРҚ- 360-сон Қонуни билан тасдиқланган), [htths://www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>2</sup> Хамидова З. БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ ВА АУДИТ, “ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ” 2020, 3.



томонидан тақдим этилган фикр ва мулоҳазалар (агар мавжуд бўлса) акс эттирилади.

- Ички аудит тадбири ҳисоботи ички аудит тадбирини ўтказиш гурухи (ички аудит хизмати ходими) ҳамда ички аудит объекти раҳбари ва молиявий-хўжалик фаолияти бўйича масъул шахслар томонидан имзоланади.

- Ички аудит тадбири ҳисоботи ички аудит объекти раҳбари ёки молиявий-хўжалик фаолияти бўйича масъул шахслар томонидан имзоланмаган тақдирда, ички аудит тадбирини ўтказиш гурухи (ички аудит хизмати ходими) бу ҳақда далолатнома расмийлаштиради ва ички аудит тадбири ҳисботига илова қиласди.

- Ички аудит тадбири ҳисоботи икки нусхада расмийлаштирилади ҳамда ички аудит хизмати ва ички аудит объектида сақланади. Ички аудит тадбири ҳисботи вазирлик ва идора раҳбарига унинг сўровига мувофиқ тақдим этилиши мумкин<sup>1</sup>.

**1-чизма. Бюджет ташкилотларида ички аудит хизматининг ўрни<sup>2</sup>.**

**3. Давлат молиявий назорати.** Бюджет ташкилотлари иш фаолиятини қонун хужжатлари асосида олиб борилишини тугалланган давр учун назорат қиласди ва камчиликларни аниклаб, далолатномалар тузади.

**2. Ички аудит хизмати .** Бюджет ташкилотлари фаолиятини тўғри ташкил қилиниши ва тўғри олиб борилишини доимий назорат қиласди, номувофикаликни олдини олиш учун ўз маслаҳат ва тавсияларини беради ҳамда камчиликларни тузатиш чораларини кўради

**1. Ички назорат.** Бюджет ташкилотлари иш фаолиятини амалга оширувчи ташкилот раҳбари ва барча ходимлари вазифаларини белгилайдиган ва амалга оширилишини таъминлайдиган жараёндир.

Бюджет ташкилотларида ички аудит хизмати давлат молиявий назорати ҳамда бюджет ташкилотларининг ички назорат тизими билан ўзаро узвий боғлиқликда фаолият олиб боради. Бюджет ташкилотларида ички назорат энг муҳим ўринни эгаллайди. Ўзаро ҳамкорликда ҳам пирамиданинг асосини ташкил этади. Ички аудит хизмати эса ички назорат ташкил этилишини таъминлайди, фаолиятини кузатиб боради ва самарали ташкил этилишига ёрдам беради.

Бюджет ташкилотларининг ички назорат тизими ва ички аудит хизмати ўзаро ҳамкорликда иш олиб боришлари ва ушбу ҳамкорлик молиявий ресурсларни бошқариш сифатини ошириш ва шаффофликни яратиш учун хизмат қилиши лозим. Бюджет ташкилотларида ички аудит тизимни такомиллаштириш бир неча босқичда амалга оширилиши керак. Биринчи босқич – бу бюджет хатарларини бошқариш тизимининг элементларини киритиш. Ички назоратни

1 Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг буйруғи, 24.10.2022 йилда рўйхатдан ўтган, рўйхат раками 3394

2 Хамидова З. БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ ВА АУДИТ, “ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ” 2020, 3.



амалга ошириш қоидаларида ички назоратнинг тўғри ташкил этилиши учун амалга ошириладиган ишлар алгоритмларини шакллантириш зарурлиги назарда тутилган бўлиб, улар тегишли бюджет тартибидан келиб чиқадиган операцияларни, уларни амалга ошириш учун жавобгар бўлган мансабдор шахсларни, назорат усулларини ва уларни амалга ошириш учун назорат тадбирларини кўрсатади.

Мазкур тезиснинг якунида хулоса сифатида ички аудит функциясини амалга ошириш бўйича ушбу вазифаларнинг тўлиқ амалга оширилиши бизга бўлимларда умумий ички аудитни босқичма-босқич ўтказишга имкон беради, унинг доирасида куйидаги вазифаларни ҳал қилиш керак:

- давлат дастурлари кўрсаткичларига эришишни таъминловчи жараёнларни бошқариш ва бошқариш сифатини идоралараро баҳолаш;
- муассасани молиявий қўллаб-қувватлаш бўйича бошқарув қарорларини таҳлил қилиш;
- бюджет ҳисботининг ишончлилигини тасдиқлаш.

Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки, самарали ички аудитни ташкил этиш ва амалга ошириш учун замонавий меъёрий-хукукий базани яратиш, бюджет ташкилотларининг иқтисодий фаолиятини хавфсизлигини, самарадорлигини ва қонунийлигини таъминлайди.



“БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТ ВА ИЧКИ АУДИТ  
ХИЗМАТИ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ”

МУХАММАДЖОНОВ МУРОДЖОН МҮМИНЖОН ЎГЛИ,  
“БАНК-МОЛИЯ” АКАДЕМИЯСИ ТИНГЛОВЧИСИ  
ТЕЛЕФОН: +998990770506  
LIFEMUROD@GMAIL.COM

**АННОТАЦИЯ:** Мақолада бюджет ташкилотида ички назорат ва ички аудит хизматини самарали ташкил этиш йўллари, ички аудитни ташкил этишнинг алоҳида жиҳатлари, ички аудитни такомиллаштириш босқичлари, ташкилотда ички назорат ва ички аудитнинг ўзаро алоқаси, бюджет ташкилотларидаги ички аудит хизматини тўғри ташкил этилиши бўйича ёндашувлар кўриб чиқилган.

**КАЛИТ СУЗЛАР:** Бюджет ташкилоти, ички назорат, ички аудит, такомиллаштириш, хатарлар, ички аудитор, сифат, баҳолаш, харажат, даромад, натижавийлик

Бугунги кунда бюджет маблағларидан фойдаланиш самарадорлигини, молиявий назорат ва ички аудит тизимларининг сифати ва самарадорлигини сезиларли даражада ошириш зарурати мавжуд. Тизим давлат молиявий назорати органларининг ваколатлари ва молия назорати соҳасидаги муассиснинг ваколатларини тақорорлашни ўз ичига олади.

Молиявий назорат ва ички аудит молиявий бошқарув тизимининг бир кисмидир. Ички аудит – ички аудитор томонидан амалга ошириладиган, вазирлик, қўмита ва идоралар ички назорат тизимининг сифати ва самарадорлигини мунгизам равишда кузатиб бориш, баҳолаш ва уни такомиллаштириш бўйича тавсиялар бериш орқали вазирлик, қўмита ва идоралар фаолиятини яхшилашга қаратилган мустақил ва объектив фаолият.

*1-чизма. Бюджет ташкилотларида ички аудит хизматининг ўрни.*

**3.Давлат молиявий назорати:** Бюджет ташкилотлари иш фаолиятини қонун ҳужоатлари асосида олиб борилишини тугалланган давр учун назорат қиласди ва камчиликларни аниқлаб, далолатномалар тузади.

**2.Ички аудит хизмати:** Бюджет ташкилотлари фаолиятини тўғри ташкил қилиниши ва тўғри олиб борилишини доимий назорат қиласди, номувофиқликларни олдини олиш учун ўз маслаҳат ва тавсияларини беради ҳамда камчиликларни тузатиш чораларини кўради.

**1.Ички назорат:** бюджет ташкилотлари иш фаолиятини амалга оширувчи ташкилот раҳбари ва барча ходимлари вазифаларини белгилайдиган ва амалга оширилишини таъминлайдиган жараёндири.

Халқаро амалиётга мувофиқ, тизимни ижро этувчи ҳокимият органида қўйидагиларга қаратилган узлуксиз жараён сифатида кўриб чиқиши керак:

- бюджетни тузиш ва ижро этишнинг белгиланган тартибига риоя этилиши;
- бюджет ҳисботини тайёрлаш ва бюджет ҳисобини юритишнинг белгиланган тартибиغا риоя қилиниши (бюджет ҳисботининг ишончлилигини таъминлаш);
- бюджет маблағларидан фойдаланиш самарадорлиги ва самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тайёрлаш ва амалга ошириш.

Кўпчилик давлат молиявий назорати ва давлат ички аудит тизимини “максус” ҳисобланган бюджет ваколати сифатида қабул қиласди, тартибига солувчи, Молия Вазирлиги томонидан ҳаддан ташқари расмийлаштирилган бюджет жараёнининг иштирокчилари, унинг сифатли бажарилишини таъминлаш учун ходимлар сонини кўпайтириш ва молиявий қўллаб-куватлаш зарурлигини асослайдилар.

Ўз навбатида, Молия Вазирлиги бюджет ташкилотлари учун молиявий назорат ва ички



аудит тизимларини жорий этиш ва бошқариш учун зарур бўлган меъёрий-хукуқий, услугубий ва ташкилий хужжатларни қабул қиласди.

Давлат молиявий назорати ва бюджет ташкилотлари ички аудит хизмати вакилларининг бажарадиган вазифалари бир-бирига ўхшасада, уларнинг максади ва иш услублари жиҳатидан фарқ қиласди. сифатини баҳолаш даврий расмийлаштирилган жараён бўлиб, у бюджет жараёни ва молиявий иқтисодий фаолиятнинг барча элементларини камраб олувчи жараёнлар ва процедураларни ҳар томонлама баҳолаш ва таҳлил қилишни таъминлайди.

2018 йилдан бюджет ташкилотлари иш сифатини баҳолашни ички назорат ва ички аудит тизимларини ривожлантириш билан интеграциялашувини таъминлайдиган методологияни ишлаб чиқишида янги босқич бошланди. Бу босқичда давлат ташқи ва ички назорат органлари фаолияти асосан, бюджет ташкилотларининг ички назорат тизимини сифатини баҳолашга ва самарали ташкил этилишига қаратилди.

### *2-чизма. Амалга ошириладиган ишлар алгоритми.*



Ички аудит функциясини амалга ошириш бўйича ушбу вазифаларнинг тўлиқ амалга оширилиши бизга бўлимларда умумий ички аудитни босқичма-босқич ўтказишга имкон беради, унинг доирасида қўйидаги вазифаларни ҳал қилиш керак:

- давлат дастурлари кўрсаткичларига эришишни таъминловчи жараёнларни бошқариш ва бошқариш сифатини идоралараро баҳолаш;
- муассасани молиявий қўллаб-куватлаш бўйича бошқарув қарорларини таҳлил қилиш;
- бюджет ҳисботининг ишончлилигини тасдиқлаш.

Шунинг учун ички назорат ва ички аудит тизимини ўзgartириш, молиявий менежмент тизимида уларнинг ўрни ва ролини аниқлаш зарур. Бунинг учун ҳар бир давлат органи томонидан белгиланган мақсадларнинг чинакам бажарилишини таъминлайдиган ички назорат ва ички аудит тизимини лойиҳалаш бўйича қарорларни амалга ошириш учун зарур бўлган шарт-шароитларни яратиш керак. Ички назорат ва ички аудит тизимини такомиллаштириш бўйича юқорида тавсифланган чора-тадбирларнинг амалга оширилиши ушбу тизимларни бюджет харажатлари самарадорлигини оширишнинг самарали воситасига айлантиради.

Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки, самарали ички аудитни ташкил этиш ва амалга ошириш учун замонавий меъёрий-хукуқий базанияратиш, бюджет ташкилотларининг иқтисодий фаолиятини хавфсизлигини, самарадорлигини ва қонунийлигини таъминлайди. Аудит текширувни ўтказиш вактида вазифа бюджет ташкилотининг иш фаолиятини баҳолашга берилмайди. Фаолият соҳаларининг мураккаблиги ва хилма-хиллиги туфайли бундай баҳолаш усу-лини топиш имконсизdir. Амалга оширилаётган ишлар йўналишлари мақсадга мувофиқ текши- рилади. Текширув натижаларига кўра ички аудит томонидан давлат маблағларидан самарали фой-даланиш бўйича хулосалар ва тавсиялар бери-лиши керак.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикасининг “Бюджет Кодекси” (ЎзР 26.12.2013й. ЎРҚ- 360-сон Конуни билан тасдиқланган), [htths://www.lex.uz](http://www.lex.uz)

2. Статья: А.Гусеев “Положение о внутреннем финансом контроле” Журнал: “Силовые министерства и ведомства: бухгалтерский учёт и налогообложения» № 1/ 2017 г.[www.taxpravo.ru/analitika/statya](http://www.taxpravo.ru/analitika/statya).

3. Внутренний контроль. Интегрированная модель COSO: Концепция и приложения / Комитет спонсорских организаций комиссии Тридуэя. / Некоммерческое партнёрство «Институт внутренних аудиторов», май 2013. -186 с.



## AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XALQARO STANDARTLARNING QO'LLANISHI

Jumamuratov Doniyor Mansurbek o'g'li

O'zbekiston Respublikasi bank moliya

akademiyasi tinglevchisi

Tel: 99 811-16-98

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o'tish masalalari, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar” to'g'risidagi PQ-4611-sonli qarori asosida moliyaviy hisobotlarni tizish tartibi, uning amaliyotda qo'llanilishi va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o'tishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarining amaliy tahlili keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Aksiyadorlik jamiyati, moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, kichik va o'rta biznes.

Mamlakatimizda bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Har bir sohada bugungi globallashuv jarayonida sifatli va raqobatbardosh tizim yaratish bo'yicha amaliy ishlar davom etmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilish uchun muayyan sharoit yaratish, jumladan, vatanimiz iqtisodiy sub'ektlari faoliyatining shaffofligi va aniqligiga erishish zarur. Bu masalani amalga oshirish moliyaviy hisobotlarning umumqabul qilingan jahon standartlarini – moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash bilan bog'liq. Xususan, so'nggi yillarda respublikamizda buxgalteriya hisobi va hisobotini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiqlashtirish bo'yicha qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda va bugungi kunda ushbu ulkan ishlarning navbatdagi istiqbolli bosqichiga o'tildi desak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi<sup>1</sup> (Mirziyoyev, 2020) qarori qabul qilinishi va unga binoan, 18ta banddan iborat “Yo'l xaritasi” tasdiqlangani yurtimizda ushbu yo'nalishda ham jiddiy ishlarga qo'l urilayotganidan dalolat beradi. Biz xalqaro doiraga, jahon bozoriga intilayotgan ekanmiz, faoliyatimiz ham xalqaro darajaga mos bo'lishi lozim. Mazkur qarorda yurtimizda faoliyat yuritayotgan davlat sektorlarida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha yo'l – yo'riq va ko'rsatmalar berilgan. Iqtisodiy sektorda buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini mamlakatlarda qo'llash orqali yanada yuqori sifatli moliyaviy hisobotlarni tayyorlash imkonini beradi, tashkilotlar faoliyati natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi, axborotlarni shaffofligini oshiradi.

Prezidentimizning yuqoridagi qaroriga asosan aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS)ga o'tadi.

Kapital bozorini rivojlantirish agentligi bu bo'yicha yangi talablarni tasdiqladi. Unga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatlari 2021-yil 1-yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va moliyaviy hisobotni shu asosda tayyorlaydi. 2021-yil yakuniga qadar hisobchilarni xalqaro sertifikatlash doirasida «MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot» fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to'g'risida hujjatga yoxud “CIPA”, “ASSA”, “SRA” va “DipIFR” sertifikatlaridan biriga ega kamida uch nafar mutaxassis miqdorida MHXSni sifatli qo'llash uchun yetarli bo'lgan buxgalteriya xizmati xodimlari bilan ta'minlashi lozim<sup>2</sup>.

Bundan tashqari, aksiyadorlik jamiyatlari har yili hisobchilarning malakasini talab etiladigan darajada oshirishi, MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotning tegishli sertifikatga ega bo'lgan mutaxassis tomonidan imzolanishi, sertifikatlangan xodimlar mehnatini munosib rag'batlantirish tizimini joriy etishi lozim.

Zamonaviy buxgalter va har bir rahbar xodim tomonidan bank yoki kompaniyani rivojlanishi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashida duch kelinayotgan iqtisodiy muammolarni hal qilishda oz buxgalterlariga ishonch hosil qilgani holda, ularni yuqori malakasi va ish tajribalari xalqaro

1 SH.Mirziyoyev, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son

2 Jo'limatov N. Aksiyadorlik jamiyatlarida MHXS, Zarnews.uz 20.11.2020



amaliyot, ya’ni moliyaviy hisobotning halqaro standartlari (MHXS)ga tayanib eng yaqin yordamchi deb qarashi zarur. Bu esa respublikamiz iqtisodiyoti yanada rivojlanishining muhim omillaridan biriga aylanadi<sup>1</sup>.

Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining ko’lami, tarmoq xususiyatlari va yo’nalishlarini inobatga olgan holda namunaviy tashkiliy-tuzilmani joriy qilish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining ochiqligini oshirish, ular tomonidan xalqaro standartlar asosida audit va moliyaviy hisobot axborotini nashr qilish. Alovida ta’kidlab o’tish joizki, 2015-2018-yillarda barcha aksiyadorlik jamiyatlari yillik moliyaviy hisobotni nashr etishi va Xalqaro audit standartlari hamda Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga muvofiq tashqi audit o’tkazishni ma’lumot uchun qabul qilish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruva tizimini takomillashtirish komissiyasi aksiyadorlik jamiyatlarining yillik moliyaviy hisobotini xalqaro standartlarga muvofiq nashr etish jadvalini tasdiqlash” vazifalari belgilab berilgan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari qo’mitasining tarkibiga MHXS Fondi va MHXS Kengashi (keyingi matnda Kengash) kiritildi. Bundan tashqari, uning tarkibida Standartlar bo’yicha maslahat kengashi (IFRS Advisory Council), Standartlar bo’yicha Sharh berish bo’yicha qo’mita (IFRIC, IFRS) hamda MHXSni joriy etish bo’yicha tezkor xizmat faoliyat yuritadi.

O’tkazilgan islohotlardan so’ng standartlar Kengash tomonidan ishlab chiqiladi va qabul qilinadi. Bugungi kunga qadar Kengash tomonidan 13 ta yangi standart (International Financial Reporting Standards – IFRS) ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilmoqda.

Kengash 16 a’zoga ega bo’lib, MHXS Fondiga hisobdor hisoblanadi. MHXS fondi – xususiy sektorning jamiyat manfaatlari maqsadida ishlaydigan, mustaqil, notijorat tashkilot bo’lib, uning asosiy maqsadi:

– MHXS standartlarni o’rnatuvchi idora – Kengash tomonidan yuqori sifatli, tushunarli, amalda kuchga ega va xalqaro miqyosda tan olingan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari yagona to’plamini ishlab chiqish;

– ushbu standartlarning joriy etilishi va qat’iy qo’llanilishini ilgari surish;

– rivojlanayotgan mamlakatlar hamda kichik biznesning moliyaviy hisobot bo’yicha ehtiyojlarini hisobga olish;

– Kengash tomonidan chiqariladigan standart va izohlar bo’lmish Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlarini milliy standartlar va MHXSni konvergensiyasi (birlashishi) orqali ilgari surish va ularning qabul qilinishinijadallashtirishdan iborat.

MHXSga o’tish natijasida erishiladigan amaliy afzalliklar quyidagilardan iborat:

– Aktivlarni baholashning bozor mexanizmlari – amalda aktivlar va majburiyatlarning dastlabki qiymati va uning joriy bozor qiymatidan foydalanish investor uchun ham tashkilotning o’zi uchun ham samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi;

– moliyaviy instrumentlarni qo’llash qulayligi – MHXS hujjatlari zamonaviy biznes yo’nalishlari va operatsiyalarni aks ettirish usullarini yetarli darajada tez-tez qayta ko’rib chiqilishi mamlakatda moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi;

– Aktivlar qadrsizlanishini o’z vaqtida aks ettirish – amaldagi hisob standartlari aktivlar qadrsizlanishi riski bo’yicha choralar ko’rishni talab etmaydi. Natijada yirik kompaniyalarda aktivlar summasining oshirib ko’rsatilish riskini yuzaga keltiradi. MHXS standartlari bunday risklarning oldi olinishi uchun zaruriy talablarni qo’yadi;

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. SH.Mirziyoyev, PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” 24.02.2020.
2. Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O’quv qo’llanma. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.
3. Karimov A, Qo’ziyev I, Rahimov M Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, Xalq so’zi, 2020.
4. IFRS Foundation web sites

1 Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O’quv qo’llanma. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.



## КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИДА ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛЛИКНИ ОШИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Маннапова Шахноза Элшодовна

Тошкент молия институти  
“Молия” кафедраси доценти  
e-mail:shaxnozamannapova85@mail.ru

**АННОТАЦИЯ:** Мақолада кичик саноат зоналари инвестицион фооллигини оширишнинг назарий асослари билан боғлиқ жараёнлар ёритилган. Кичик саноат зоналарида инвестицион фаолликни таъминлаш жараёнига таъсир кўрсатувчи омиллар назарий-услубий жиҳатдан ўрганилган.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** Кичик саноат зоналари, инвестиция дастури, инвестицион лойиха, инвестицион фаоллик, инвестиция сиёсати, инвестицион салоҳият, инвестиция муҳити, инвестицион ресурс.


Бугунги кунда саноат зоналарининг инвестицион фооллигини оширишда, саноат зоналарида ташкил этилган корхоналар фаолиятининг барқарор иқтисодий ўсишини таъминлаш, саноат ишлаб чиқаришни модернизация ва диверсификация қилиш, юқори истеъмол характеристига эга бўлган саноат маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш жараёнлари устувор аҳамият касб этади. Бу каби қатор ҳолатларда инвестицияларни иқтисодий тараққиётдаги ролини комплекс баҳолаган Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев 2018 йил 28 декабрдаги мамлакатимизни ривожлантиришнинг энг муҳим устувор вазифалари тўғрисидаги Олий Мажлисга Мурожаатномасида қўйидагича тўхталиб ўтган эди: «...Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, қайси давлат фаол инвестиция сиёсатини юритган бўлса, ўз иқтисодиётининг барқарор ўсишига эришган. Шу сабабли ҳам инвестиция – бу иқтисодиёт драйвери, ўзбекча айтганда, иқтисодиётнинг юраги, десак, муболага бўлмайди”[1].

Кичик саноат зоналарида инвестицион фаолликни ошириш жараёни, саноат зонасида жойлашган корхоналарнинг стратегик мақсад ва вазифа-ларини тўғри шакллантириш орқали намоён бўлади. Бугунги кунда инвестицион фаолликни оширишга йўналтирилган қатор тадқиқотларда

саноат ишлаб чиқариш жараёнини ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий асосларини такомиллаштириш муҳим характер касб этади. Бунда корхоналарнинг моддий-техник базасини модернизациялаш, инновацион турдаги товар ва хизматлар ишлаб чиқариш ҳажмини кенгайтириш, инвестицион омиллар интеграцияси ҳисобига бир бирлик маҳсулот ишлаб чиқариш учун кетадиган ўртача сарф-харажатлар ҳажмини пасайтириш билан боғлиқ қатор жараёнлар тадқиқот ишининг предмети сифатида хизмат қилмоқда. Аммо, саноат зоналарида инвестицион фаолликни оширишнинг шарт-шароитлари ва омилларини инвестицион жозибадорликнинг инвестицион фаолликни таъминлашга таъсири, саноат зоналарида инвестицион лойихаларни шакллантириш муаммоларини бартараф этишга таъсири билан боғлиқ каби омилларнинг инвестициялар самарадорлигини оширишга бевосита таъсири каби долзарб масалалар ўз илмий ечимини топмай қолмоқда. Ўзбекистонда саноат ишлаб чиқаришнинг тузилмавий таркибини ўзгартириш, саноат маҳсулотларини ишлаб чиқаришни аҳоли жон бошига ошириш ва саноат ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш тизимини кўллаб-кувватлашда саноат зоналарининг ўрни етакчи аҳамиятга эга.

**КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИ** – худудий-иқтисодий ва инновацион ривожлантириш, хорижий ва маҳаллий инвесторларни жалб этиш мақсадида кичик ва ўрта тадбиркорлик фаолиятини кўллаб-кувватлашга қаратилган, аниқ чегаралари белгиланган ва солиқ, божхона ва бошқа имтиёзли режим амал қилувчи худуддир.

Муаллиф таърифидан келиб чиққан ҳолда кичик саноат зоналарининг асосий хусусиятларини қўйидагилар орқали ифодалаш мумкин:



**1-расм. Кичик саноат зоналарининг асосий хусусиятлари[2]**

“Инвестиционфаоллик”нинг мазмун-моҳиятини асослашгай ўналтирилган тадқиқотларда мамлакат ички бозор сифими, аҳоли турмуш фаровонлиги ва даромадларининг нисбий ўзгариш суръати, давлатнинг макроиқтисодий сиёсати каби қатор омиллар ҳисобга олинмаган. Айниқса, бу борада инвестицион фаолликка тўғридан-тўғри таъсир кўрсатувчи ички бозор сифими ва унинг асоси ҳисобланган даромадлар даражаси инвестицион фаолликни оширишда самарали таъсир кўрсатувчи омиллар қаторидан ўрин эгаллайди.

Инвестицион фаолиятни амалга оширишнинг реал ва потенциал имкониятлари аҳоли бандлигининг тармоқ ва худуддий таркибини такомиллаштиришга асос яратади. Аҳоли бандлигининг интеллектуал таркибини ўсиши инвестицион фаоллик таъсирида рўй беради. Аҳоли бандлигининг худудий, тармоқ ва интеллектуал таркиби билан инвестицион фаоллик ўртасида узвий алоқадорлик, инвестицияларнинг сафарбар этилиши, ўзлаштирилиши ва самарадорлигини таъминлашнинг муҳим асоси ҳисобланади.

Кичик саноат зоналарида инвестицион фаолликни оширишда энг муҳим вазифаларидан бири фаол инвестиция фаолиятини амалга ошириш ҳисобланиб, бунда ижтимоий-иқтисодий алоқалар, моддий ресурслар ва ишлаб чиқариш кучларини илмий-техник жиҳатдан янгилаш муҳим ҳисобланади. Кичик саноат зоналарида инвестиция муҳити инвесторнинг инвестиция обьектига ўз баҳосини берадиган инвестицион жозибадорликни таъминлайди.

Хулоса қилиб айтганда, ташкил этилган инвестиция муҳити ва унинг самарадорлигини баҳолаш жараёни кичик саноат зоналарининг инвестицион салоҳиятидан мақсадли фойдаланишга таъсир кўрсатади. Шу мақсадда инвестиция муҳити мезонларини ишлаб чиқиши ҳамда худудий даражадаги ҳокимликлар томонидан мониторинг жараёнларини амалга ошириш тизимини жорий этиш мақсадга мувофиқ.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги мамлакатимизни ривожлантиришнинг энг муҳим устувор вазифалари тўғрисидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://aza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliasy-28-12-2018>

2. Муаллиф томонидан тадқиқот натижалари асосида тузилган.

3.stat.uz сайти маълумотлари



“ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ИЧКИ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТ  
ТИЗИМИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ”

Мухаммаджонов Муроджон Мўминжон ўғли,  
“Банк-молия” академияси тингловчиси  
Телефон: +998990770506  
Lifemurod@gmail.com

**АННОТАЦИЯ:** Мамлакатимиз саноат тармоқлари корхоналарининг аксарияти акциядорлик жамиятлари асосида ташкил қилингани сабабли акциядорлар ва инвесторлар ишончини ошириш кўп жиҳатдан компанияда ички назорат тизимини ташкил қилишга ва рискларни самарали бошқаришга боғлиқ бўлади.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** Молиявий назорат, бухгалтерия, проводка, ички назорат, ички аудит, такомиллаштириш, хатарлар, ички аудитор, сифат, баҳолаш, харажат, даромад, натижавийлик.

Бу борада жаҳон амалиётида ички назорат тизимининг тадбиқ қилинишини зарурияти иирик Enron ва WorldCom каби компанияларнинг молиявий ҳисботларида хатоликлар билан боғлиқ тортишувларга сабаб бўлди. АҚШда 2002 йилдан ички назорат тизимини тартибга солувчи Сарбейнса-Оксли (Sarbanes-Oxley Akt 2002) қонуни амал қилина бошлади. Сарбейнса-Оксли қонунининг 404-моддаси “Ички назорат бошқарувини баҳолаш” деб номланиб, ички назорат тизими даражаси тўғрисидаги раҳбарият ҳисботини аудиторлик текширувидан ўтказиш хақидаги талабни ўз ичига олади. Ушбу қонунга мувофиқ компания бошлиқлари ички назорат тизимини молиявий ҳисботлардаги барча жиддий камчиликларни ва уларни бартараф этиш тадбирларини иловаларда кўрсатган холда хужжатли баҳолашлари шарт.

Компания раҳбари томонидан тасдиқланган ички назорат тизими ташқи аудиторлар томонидан баҳоланади. Мазкур қонунга асосан компания раҳбариютига ички назорат тизимининг самарадорлиги ва молиявий ҳисботларнинг ишончлилиги учун шахсан жавобгарлик белгиланган бўлиб, жиной жавобгарликкача бориши мумкин.

Ички молиявий назорат тизимининг асосий субъекти ички аудит ҳисобланади, шу сабабли ташқи (мустақил) аудиторлар ўз фаолиятида кўп жиҳатдан ички аудит натижаларига таянади. Умуман олганда ички аудиторлар ўzlари ишлайдиган корхоналар фаолиятини текширади. Аммо, улар низомга кўра, корхона маъмурияти (директорлар кенгаши) таркибига кирадилар. Бундай назорат (ўз-ўзини назорат қилиш) шакли АҚШда ўтган XX асрнинг 30 йилларида юзага келиб, кейинчалик Фарбий Европа ва Японияда тарқалган.

Хозирги вақтга келиб, кўп ҳолларда ички аудиторларнинг функциялари, хатто ўз компанияси таркибий бўлинмалари бухгалтерия ҳисботларини текшириш доирасидан ҳам четта чиқади. Ички аудиторлар корхонанинг иқтисодий сиё сати ва бошқарув масалаларида кўпроқ иштирок этмоқдалар. Ички аудиторлар юқори малакали мутахассислар бўлиб, ўз мақомига кўра катта ваколатларга эга. Уларнинг мажбуриятлари доирасига кўпроқ куйидагилар киради:

Операцион аудит –бошқарув масалалари бўйича корхонанинг турли таркибий бўлинмаларига маслаҳат бериш каби фаолият (масалан, маркетинг ишларини баҳолаш, корхона таркибий тузилмасини баҳолаш ва х.к.);

Мувофиқлик аудити – ушбу корхона бўлинмалари фаолияти, унинг маъмурияти ва зарур бўлганда юқори органлар томонидан белгиланган ёки қонун хужжатларида кўрсатилган қоидаларга мувофиқлигини текширишдан иборат. Масалан, тузилган шартномаларни юридик талаблар нуқтаи назаридан текшириш ва баҳолаш, рискларни камайтириш ва х.к.

Корпоратив бошқарув шароитида ички назорат ва рискларни самарали бошқариш компания барқарор ривожланишининг зарур шартларига айланиб қолишига бир нечта сабаблар мавжуд:

- акциядорлар, инвесторлар ва бошқа манфаатдор томонларнинг бизнес шаффофлигига бўлган талабларининг ортиб бориши;
  - фаолият самарадорлигини ошириш резервларини тезкор излаш, мулқдорларнинг тезкор бошқарувдан воз кечиши;
  - бошқарув қарорларини қабул қилишда ишонарли текширув хулосаларига бўлган эҳтиёж;
  - рискларни тезкор баҳолаш.
- Шу маънода ички назорат тизимига асосланган замонавий рискларни тадбиқ қилиш,



компания фаолиятининг самардорлигини оширишнинг муҳим воситаларига айланмоқда.

Ички назорат тизимини тадбиқ қилиш молиявий ахборотларнинг ишончлилигини таъминлади, шунингдек нотўғри қарор қабул қилиш рискларини пасайтиради. Ички молиявий назорат тизимининг ташкил қилиниши жиддий (оқибатида катта молиявий йўқотишларга олиб келадиган) рискларни аниқлашга қаратилган назорат тартибларини, шунингдек назорат амалларининг самараадорлигини аниқлаш тест тизимларини ишлаб чиқади.

Акциядорлик жамиятларида ички молиявий назорат тизимини ташкил қилишда асосий масалалардан бири бу ички стандартлар ва регламентларнинг бўлмаслиги ёки мазмунан тушунарсизлигидир. Ички назорат хизмати ходимларининг биринчи вазифаси ички стандартлар тизимини ишлаб чиқиши лозим бўлади. Бу стандартлар тизимига ҳужжатлар айланиши тўғрисидаги Низом, молиялаштириш тизими тўғрисидаги Низом, Ҳисоб сиёсати (бухгалтерия ҳисоби учун алоҳида ва бошқарув ҳисоби учун алоҳида), Кузатув кенгашига тақдим қилинадиган молиявий ҳисботларининг регламенти ва ички аудит тўғрисидаги Низомлар киради.

Мамлакатимизда Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Қимматли қоғозлар бозорини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида" 2006 йил 27 сентябрдаги ПҚ-475-сонли ва "Ўзбекистон Республикаси Давлат мулки қўмитаси фаолиятини такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарорларига мувофиқ, шунингдек давлат мулкидан фойдаланиш самардорлигини ошириш, инвестицияларни жалб этиш учун шарт-шароитлар яратиш мақсадида Вазирлар Маҳкамасининг қарори билан тасдиқланган активларининг баланс қиймати 1 миллиард сўмдан ортиқ бўлган корхоналарда ички аудитни ташкил этишга қўйиладиган ягона талабларни ҳамда унинг ишини ташкил этишнинг методологик асосларини белгилаб берувчи корхоналарда ички аудит хизмати тўғрисида Низом ишлаб чиқилган.

Молиявий назорат тизими субъектларининг ҳамкорлигини янада ривожлантириш йўналишларидан бири – ички аудит иши натижаларидан фойдаланиш ҳисобланади. Ҳозирги пайтда ички аудит ишчи ҳужжатларидан фойдаланиш амалиёти кенгаймоқда, шунингдек давлат назорати ва ташки аудитга бевосита ёрдам бериш учун ички аудит ҳам жалб қилинмоқда. Ички аудит самараадорлиги текширилаётган ташкилотнинг ички назорат тизимига бўлган ишонч омили ҳисобланади ва текширишга сарфланадиган маблағ ҳажмини сезиларли даражада қисқартириши мумкин.

Шундай мезонлар сирасига, бизнинг фикримизча, ахлоқ кодекси, Этика кодекси (**Code of Ethics**) – Халқаро ички аудиторлар институтининг (**Institute of Internal Auditors**) ахлоқ кодекси ички аудиторлар амалиёти ва касбига доир тамойилларни ўз ичига олади ҳамда уларнинг ўзини тутиш тартиб-қоидаларини тавсифлаб беради. Ахлоқ кодекси ички аудит фаолияти билан шуғулланувчи жисмоний ва юридик шахслар учун мўлжалланган бўлиб, унинг мақсади юқори ахлоқий меъёрларни дунё миқёсида профессионал ички аудиторлар ўртасида оммалаштириш ва ички аудитнинг профессионал стандартларини киритиш мумкин. Уларга риоя қилиш ички аудит сифатини кафолатлади. Акциядорлик жамиятларида этика кодекси мавжудлиги раҳбарият ҳамда ташки аудит томонидан ички аудитга адекват баҳо бериш имконини беради. Ҳозирги кунда дунёнинг бир қанча мамлакатларида 180 дан ортиқ бўлимлари фаолият кўрсатаётган Ички аудиторлар институти (**Institute of Internal Auditors**) томонидан ички аудитнинг халқаро профессионал стандартлари ҳамда Этика кодекси ишлаб чиқилган бўлиб, ушбу стандартларни Акциядорлик жамиятларида ташкил қилинган ички аудит хизматлари фаолиятига тадбиқ қилиш ички молиявий назорат тизимининг самараадорлигининг ошишига хизмат қиласи.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Халқаро аудит тизими. Ўкув кўлланма./ Файзиев Ш., Исломов Ф., Авлоқулов А. -Т.: ТМИ, 2006.
2. www.findlaw.com – АҚШ қонун ҳужжатлари базаси
3. Корхоналардаги ички аудит хизмати тўғрисида НИЗОМ. Вазирлар Маҳкамасининг 2006 йил 16 октябрдаги 215-сон Қарори. "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2006 йил, 42-сон, 417-модда.



## ЯНГИЛАНГАН СИЁСИЙ ЖАМИЯТДА АДОЛАТ ВА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ

Хуррамов Фарход Холбоевич

Микрокредитбанк АТБ Ички  
назорат департаменти директори  
ўринбосари, БМА магистранти  
ТЕЛ:88-039-10-01

**АННОТАЦИЯ:** Мазкур тадқиқотда қонун устуворлиги ва қонунийликни мустаҳкамлаш, шахс ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ишончли ва самарали ҳимоя қилишга қаратилган суд-хуқуқ тизимини изчил демократлаштириш ва либераллаштиришдан иборатдир. Зоро, Президентимиз таъкидлаганларидек, “ҳар бир давлат тарихида янги ижтимоий сифат ҳолатига ўтиш афсуски, коррупция ва жиноятчилик каби жирканч ҳодиса билан бирга юз берган. Амалга оширилган тадқиқотлар натижасида хулосалар шакллантирилиб, тегишли илмий таклиф ва амалий тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** Суд-хуқуқ, қонун устуворлиги, коорупция, банклар, банк-мизозлари, легал даромад

**A B S T R A C T:** In this study, the consistent democratization and liberalization of the legal system aimed at strengthening the rule of law and legality, reliable and effective protection of individual rights and legal interests. After all, as the President noted, "in the history of every state, the transition to a new state of social quality unfortunately happened along with such a disgusting phenomenon as corruption and crime." As a result of the conducted research, conclusions were formed, appropriate scientific proposals and practical recommendations were developed.

**Key words:** Judiciary, rule of law, corruption, banks, bank clients, legal income

### КИРИШ:

Уюшган жиноятчилик ва унга қарши кураш ҳозирги пайтда жаҳон ҳамжамиятини хавотирга солаётган масалалардан бири сифатида намоён бўлмоқда. Хусусан, глобаллашув жараёни жадаллашган XXI асрда уюшган жиноятчиликнинг трансмиллий характер касб этиши бу муаммога етарли эътибор берилишини тақозо этмоқда. Жаҳон ахлини хавотирга солаётган ва уюшган жиноятчиликнинг ривожланишига замин яратаБтган трансмиллий характердаги жиноятлардан бири бу жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштириш жиноядидир.

Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонунининг 21-моддасига мувофиқ давлат органларининг ходимлари мансабёки хизмат мажбуриятларини бажариш чоғида манфаатлар тўқнашувига олиб келадиган ёки олиб келиши мумкин бўлган шахсий манфаатдорликка йўл қўймаслиги керак-деб эътироф этилган.

### Асосий қисим.


Ўзбекистоннинг янгилangan сиёсати жамиятда адолат ва қонун устуворлигини олий даражага кўтариш, замонавий самарали давлат бошқарувини жорий этиш, давлат хизматчиларида коррупциявий ҳолатларнинг барча кўринишларига қатъий чидамсизлик руҳиятини шакллантириш, ҳалқ манфаатларини сўзсиз таъминлаш каби юксак ғояларга таянмоқда. Аввало, ушбу ислоҳотларнинг туб замирида Президент Ш.М.Мирзиёев томонидан илгари сурилган устувор гоя «Ҳалқ давлат органларига эмас, балки давлат органлари ҳалқга хизмат қилиши керак» асосий тамойилга мувофиқ барча имкониятлар ҳалқимиз манфаатлари йўлида сафарбар этилиши устувор вазифа этиб белгиланмоқда.

Бу ўринда ислоҳотларнинг чинакам натижадорлигига эришиш мақсадида давлат ва жамиятнинг ҳар бир соҳасида коррупцияга қарши курашиш самарадорлигини изчил таъминлаб бориш алоҳида аҳамият касб этади.

Таъкидлаш жоизки, коррупцияга қарши курашиш соҳасида давлат сиёсатининг самарали амалга оширилишини таъминлаш ҳамда коррупция кўринишларининг оқибати билан эмас, балки сабаб ва шарт-шароитларини бартараф этиш бўйича ҳалқаро тажрибада кенг қўлланилиб келаётган замонавий жиноятчиликни олдини олиш чораларни миллий амалиётга татбиқ этишни тақозо қилмоқда.



## Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашишнинг институционал тизимини қўйидагилар ташкил этади:



Бу ўринда Президентнинг 2020 йил 29 июндаги «Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-6013-сонли Фармонга асосан янги ташкил этилган Коррупцияга қарши курашиш агентлигининг асосий вазифаларидан бири этиб.

2020-2021 йилларда барча давлат ва хўжалик бошқаруви органлари, давлат корхоналари ва устав капиталида давлат улуши бўлган корхоналар, шу жумладан банкларда коррупцияга қарши ички идоравий назорат тизимларини босқичма-босқич жорий этиш белгиланди.

Хорижий амалиёт таҳлили шуни кўрсатди, бозор иқтисодиёти қонунларга асосланган мамлакатларда коррупцияга қарши курашиш соҳасида давлат ва хусусий сектор иштирокчиларининг халқаро стандартлар, қонун хужжатлари ва бошқа замонавий усулларга мувофиқ самарали фаолият юритишни таъминловчи мухим воситалардан бири ўз таркибида коррупцияга қарши курашиш комплаенс назорат (compliance control) тизимини ташкил этиш хисобланади.

Комплаенс назорат тизимини жорий этиш бўйича самарали тажрибага эга мамлакатлар амалиётига мувофиқ ушбу хизмат энг кенг тарқалган қўйидаги иккита модели қўлланилади:

1. Компания ва ташкилот фаолиятини фақатгина мавжуд ўрнатилган ички қонун ва қоидаларга мувофиқ ташкил этишга қаратилади. Бунда комплаенс хизматини жорий этилиши минимал қоидалар билан чекланади.

2. Комплаенс назорат тизимининг ташкил этилиши коррупция хавфларни баҳолашда халқаро ташкилотларнинг (Базел банк қўмитасининг тавсиялари, Халқаро комплаенс асоцацияси) тавсияларига асосланади ва бу моделда комплаенс хизматнинг мақоми, вазифаси, фаолият доираси асосан халқаро стандарт ва тавсияларга асосланади.

Мазкур иккى моделнинг ўзаро фарқли жиҳати, биринчи моделда комплаенс назорат тизимини ўзида ташкил этаётган компания ёки ташкилот мавжуд қонунлик меъёрлари ёки ўзи ишлаб чиқсан ички қоидалар билан тартибга солинади ва жорий этишнинг минимал талаблари билан чекланади.

Иккинчи моделда эса фаолиятни ташкил этиш нафақат миллий қонунчилик, балки халқаро стандартлар ва ташкилотларнинг тавсиялари асосида жорий этилади. Ушбу шаклда ички қонунчилик нормаларида кўзда тутилмаган коррупция хавфларига фаолият мос келадиган қўшимча профилактик қоидаларни жорий этиш мумкин бўлади.

### Хулоса ва таклифлар.

1) барча вазифалар ва таҳлилларни тижорат банки Бош аппарати ички назорат ҳизмати ёки маҳсус ваколатли давлат органига юклаган ҳолда ўзларидан жавобгарликни олиб ташлашга бўлган ҳаракатларни мавжудлиги.

2) Банк ҳизматлари масоғавий ҳизмат кўрсатиш тизимлари орқали кўрсатилганда



(масалан, мобиъл иловалар орқали) банк истеъмолчига шартнома тузилишидан олдин мазкур тизим орқали шартнома шартлари билан танишиб чиқиш ва ундан нусха олиш имкониятини яратиб бериши лозим.

3) Банк хизматидан фойдаланишдан олдин ушбу хизмат ҳақида батафсил маълумот олиш, банк ва истеъмолчининг ҳуқуқ ҳамда мажбуриятлари билан танишиш, шунингдек, истеъмолчиларга банк хизматларини бошқа банкларнинг ушбу йўналишдаги хизматлари ва уларнинг шартлари билан солишириш, таҳлил қилиш ва ўзи учун энг мақбулини танлаш имкониятини беради.

### Адабиётлар/Литература/Reference:

1. Artemenko D.A., Aguzarova L.A., Aguzarova F.S., Porollo E.V. (2017) “Causes of Tax Risks and Ways to Reduce Them”. Pages 454-458.
2. ОЕСД (2020), “Tax Administration 3.0: The Digital Transformation of Tax Administration”. Pages 10-24.
3. 2020 йил 29 июндаги «Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-6013-сонли Фармон.
4. Фармон (2020) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 октябрдаги “Яширин иқтисодиётни қисқартириш ва солик органлари фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида” ПФ-6098-сон. / Decree (2020) of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 30, 2020 No PD-6098 "On organizational measures to reduce the shadow economy and increase the efficiency of tax authorities." [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. "Микрокредитбанк" АТВ Кузатув кенгашининг 2020 йил 22 декабрдаги 12-сон қарори.
6. Ўзбекистон Республикаси “Коррупцияга қарши кураш тўғрисида”ги қонуни



## CURRENT ECONOMIC PROBLEMS IN UZBEKISTAN AND THEIR SOLUTIONS

Tursinboyeva Guljakhon Inomjon kizi

Khamidova Dilafruz Kurbonali kizi

Student, Chirchik State Pedagogical University

### ABSTRACT

The President of Uzbekistan has often urged citizens to engage in more active critical analysis while evaluating the events and developments happening in their nation. We are confident that this strategy is crucial and appropriate in theory because it makes it possible to acknowledge not only accomplishments and successes but also mistakes and shortfalls, leading to a better understanding of the primary goals of Uzbekistan's economic growth.

**Keywords:** market economy, economic efficiency, trade balance, interest rates, balance of payments, financial resources.

### INTRODUCTION

In 1991, Uzbekistan gained its independence and debuted on the international map. Reforms that should provide the groundwork for a market economy have started in the nation. And in 2022, the economic trajectory underwent a significant change as import substitution policies were put in place and governmental interference in the economy was strengthened. The state redistributed significant flows of material, financial, monetary, and labour resources to hasten industrial development through the following methods:

- Direct distribution of resources, administrative regulation of commodity prices, interest rates, and currency rates;
- High taxes and spending by the government;
- Limited use of the official exchange rate, which is helpful for buyers of foreign currency (typically two to three times different from the market rate);
- Creation of artificial monopolies by preventing the entry of new players into the market and providing tax, credit, and other benefits to specific enterprises or groups of enterprises;
- Direct ("manual") business management; and import restrictions involving tariff and non-tariff barriers.

Due to this, economic inefficiency, slow economic growth, excessive unemployment, and external labour migration are all too common.

### DISCUSSION AND RESULTS

The trade deficit of Uzbekistan has been expanding recently. The economists have had intense debates in the media about this issue demonstrate how critical this issue is for ensuring macroeconomic stability, economic progress, and the general welfare of society in the short, medium, and especially long terms. If, in 2019, the Central Bank of Uzbekistan's data showed that the country exported goods and services worth 17.0 billion US dollars, imported goods and services worth 26.6 billion US dollars, and had a negative balance of goods and services worth 9.6 billion US dollars, then the corresponding indicators would have improved in 2021. It came to 16.4 billion, 27.8 billion, and a negative \$11.4 billion [1].

The analysis of Uzbekistan's balance of payments for 2020–2021 reveals that income from Uzbek labour migrants employed outside the country contribute significantly to the deficit in the balance of goods and services. Overall, the current balance's positive trade in 2021 came to 6.6 billion dollars [2].

As long as there are no threats that could cause income to drop, a deficit in the country's balance of goods and services of this size does not endanger macroeconomic stability and economic growth. Such dangers do, however, exist and are connected to the export of goods [3]. For instance, a decline in the value of items that are exported globally or a fall in the income of nations that import our goods might lead to decreased export revenues, which would also lead to a decline in our exports. The difference between the surplus and deficit in the factor income balance in Uzbekistan in 2021 is 4.8 billion dollars (\$11.4-6.6 billion) [4].

Although foreign direct investment into Uzbekistan's economy has increased recently, study of the country's balance of payments data reveals that the main source of compensation for the deficit of the trade balance of Uzbekistan is together with the flow of remittances [5]. The external debt



(international loans and portfolio investments), labour migrants, and foreign direct investments all contribute to an increase in the external debt.

The financing of the trade balance deficit with the help of external debt and the increase in foreign debt do not, by themselves, reflect the effectiveness of economic policy and do not cause a disruption of macroeconomic balance or a slowdown in economic growth [6]. The nation's foreign debts will benefit from its growth if the external debt is rising but the external loans are being utilised properly and the economic potential of the country rises, which is reflected in the acceleration of economic growth in the medium and long term.

### CONCLUSION

In conclusion, our economy's major issue is that at least 25% of its economic entities lack the capital necessary to carry out expanded reproduction. Existing large capital is linked to power-based structures, demonstrating how the majority of private capital is unnecessarily dispersed and poorly concentrated. In order to solve this problem, as a result of the studied literature and observations, it was concluded that it is necessary to increase production by attracting foreign and domestic investments to small and medium-sized businesses. This, in turn, increases the competitive environment and has a positive effect on the quality and price of the produced products.

### References:

1. Stalin, J. (1952). *Economic Problems of Socialism in the USSR* (pp. 11-12). Moscow: Foreign Languages Publishing House.
2. Begimkulov, J. (2020). MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA JIZZAX VILOYATIDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY VAZIYAT. *Научно-просветительский журнал "Наставник"*.
3. Карабаев, М., Абдуманонов, А. А., & Ахмедова, М. И. (2012). Компьютерная программа для формирования иноязычной профессиональной коммуникативной компетенции студентов медиков. *Свидетельство Патентной ведомством Республики Узбекистан N: DGU, 2453.*



## MOLIYAVIY HISOBOTLARNING XALQARO STANDARTLARIGA O‘TISH BOSQICHLARI

**Mamatkulov Anvar Tashbayevich**  
 O‘zbekiston Respublikasi bank moliya  
 akademiyasi tinglovchisi  
 Tel: 99 750-32-92  
 matkulov\_1292@mail.ru

Mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon xo‘jalik tizimiga integratsiyalashuv jarayonida buxgalteriya hisobi tizimimizni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga mos holda tashkil etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda respublikamizda faoliyat yuritayotgan iqtisodiy subyektlarning xorijiy hamkorlar bilan xalqaro aloqalar doirasi sezilarli darajada kengaymoqda va o‘z o‘zidan buxgalteriya hisobotlaridan xorijiy foydalanuvchilar hajmi ham ortib bormoqda. Shu monosabat bilan BHMS bo‘yicha tuzilgan moliyaviy hisobotlarni kompaniyalariga chet ellik investorlar egalik qiluvchi hamda aksiyalari xalqaro fond bozorlarida kotirovka qilinuvchi va yirik tashkilotlar ro‘yxatiga kiruvchi yuridik shaxslar uchun MHXSga muvofiq o‘zgartirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 24.02.2020 yilda “Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘srimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”<sup>1</sup> qarorining qabul qilinishi ushbu yo‘nalishda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan hamda amalga oshirilayotgan ishlar nechog‘lik muhim ekanligini ko‘rsatib berdi

**Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari** – bu tashqi foydalanuvchilar tomonidan korxonaga yoki tashkilotga nisbatan iqtisodiy qarorlarni qabul qilishga ko‘maklashish maqsadida e‘lon qilinadigan moliyaviy hisobotlarni tuzish qoidalarini o‘zida jamlagan hujjatlar to‘plamidir. The IFRS Foundation ma‘lumotlariga ko‘ra 2023 yilda MHXSni dunyoning 167 ta mamlakatida qo‘llanilmoqda va bu ro‘yxat kengayib bormoqda. Bu ro‘yxatdagi mamlakatlar sonining kengayishiga sabab MHXSning tadbiq etilishi tadbirkorlik faoliyatini hamda biznes loyihalarni soddallashtiradi, shu jumladan xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik amalga oshirilishini soddallashtirishi bilan izohlanadi. Amaldagi qonunchilik MHXSni qo’llash majburiyatini bozorning barcha ishtirokchilariga emas, balki faqat konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni taqdim etuvchilarga yuklaydi. Gap quyidagi korxona va tashkilotlar haqida ketmoqda:

1. Aksiyadorlik jamiyatlari.
2. Tijorat banklari
3. Sug‘urta tashkilotlari
4. Yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar.

MHXSni qo’llash boshqa holatlarda ham majburiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Masalan buni bank yoki investor talab qilgan holatda. Modomiki moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining asosiy maqsadi korxona va tashkilotning holati haqida ishonchli va haqqoniyligi ma’lumot olish ekan, ushbu ma’lumotlarga tayangan holda korxonaning moliyaviy holati haqida obyektiv tasavvurga ega bo‘lish hamda kelajak uchun prognoz va tahlillarni amalga oshirish mumkin. MHXS bo‘yicha hisobot bozor ishtirokchisiga qarz mablag‘larini olishda yoki moliyalashtiirishni jalb etishda yanada qulay shartlarga tayanishga imkon beradi: qarz beruvchi yoki investor uchun kredit stavkasida qo‘yilgan xatarlarni baholashda osonroq bo‘ladi.

Mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning sabablari har xil bo‘lishi mumkin, ammo bunday qarorning asosiy maqsadi muayyan imtiyozlarga ega chiqishdir. Bunday imtiyozlar orasida past foizli kreditlar olish bilan bir qatorda xorijiy fond bozoriga kirish yoki xorijiy kompaniyalar bilan import-eksport munosabatlarini rivojlantirish kabilarni eslab o‘tishimiz darkor. Agar bosh kompaniya xorijda joylashgan bo‘lsa u ham xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan hisobotlarni talab qilishi mumkin: bu qo‘llaniladigan hujjatlashtirish birligini ta’minlaydi. Bundan tashqari mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish kompaniya rahbariyatining ushbu standartlardan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos sifatida foydalanish istagi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Jahon miyosida tan olingan

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2020 yildagi, PQ-4611-son



qidalar operatsiyalarning iqtisodiy mohiyatini yaxshiroq aks ettiradi va shuning uchun hisobot berish uchun ko‘proq mos keladi.



#### 1-rasm. Korxonada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini tadbiq etish bosqichlari.

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o‘tishni rejalashtirayotganda biz korxona uchun doimiy amalda bo‘lgan jarayonlarni jiddiy ravishda qayta tizimlashtirishga tayyor turishimiz lozim bo‘ladi. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o‘tishni amalga oshirish bir necha asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Kompaniyaning buxgalteriya hisobi va boshqaruv hisobining uyg'unlashuvi. Ushbu ikkala hisobotdagi ma‘lumotlar o‘rtasidagi tafovut ko‘plab kompaniyalar uchun jiddiy muammo tug‘diradi: hujjatlardagi bir biriga mos kelmaydigan ma‘lumotlar ularning ishonchliliginin pasaytiradi va rejalashtirishni qiyinlashtiradi. Ushbu bosqich tashkilot rahbariyati tomonidan MHXSga o‘tish to‘g‘risida qaror qabul qilish va buning uchun zarur bo‘lgan resurslarni baholash bilan boshlanadi. Avvalo korxonada xalqaro standartlarni joriy etish bo‘yicha tushunchaga va malakaga ega bo‘lgan mutaxassis bor yo‘qligini aniqlash kerak.

2. Buxgalteriya hisobining yagona metodologiyasini ishlab chiqish. Hujjatlarni taqqoslash chastotasini oshirib, korxona vaqt va resurslarni sarflaydi, ammo tafovutlarning sabablarini aniqlay olmaydi. Yagona metodologiyani ishlab chiqish uchun auditorlarga murojaat qilib, kompaniya (yoki kompaniyalar guruhi) buxgalteriya hisobining har bir turida muayyan operatsiyalarni aks ettirish talablari qayd etilgan qoidalar to‘plamini oladi. Kompaniyaning barcha filiallari uchun maksimal unifikatsiyalashtirilgan hisobot shakllari kerak. Dasturiy mahsulotni tanlashda uni tadbiq etish xarakatlari va undan foydalanishning afzalliklarini hisoblash kerak. Avtomatlashtirish MHXSga o‘tishni osonlashtirishi mumkin, odatda MHXS-hisobotlarni muntazam ravishda tayyorlaydigan kompaniyalar ushbu usulga murojaat qilishadi. Qoida tariqasida, buning uchun avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlari qo‘llaniladi, bu bizga operatsion ma‘lumotlarni yoki BHMS ma‘lumotlarini MHXSdagi hisoblar jadvaliga tarjima qilishga imkon beradi. Bundan tashqari, avtomatik algoritmlardan ham foydalanish hamda operatsiyalarning bir qismini qo‘lda ham kiritish mumkin.

3. O‘tish sanasida dastlabki balansni shakllantirish. Korxona aktivlarini va uning majburiyatlarini baholash uchun mustaqil professional mutaxassislarni taklif qilish tavsiya etiladi. Xalqaro standartlarni birinchi marta qo‘llashda hujjatlarni kamida uchta hisobot sanasiga tayyorlash kerak. Hisobot sanalarini aniqlash uchun aksiyadorlar, korxonani kredit bilan ta‘minlayotgan moliyaviy tashkilotlar, investorlar manfaatini hisobga olish lozim. Ushbu ma‘lumotlar qoidalarga muvofiq hisobotlarni tayyorlashni optimallashtiradi, auditga bo‘lgan ehtiyojni aniqlaydi va korxonada xalqaro buxgalteriya bo‘limini tashkil etish yoki tashqi maslahatchilarni yollash to‘g‘risida qaror qabul qilishga yordam beradi.

4. MHXS bo‘yicha hisobotlarni tayyorlash. Yiliga bir yoki ikki marta hisobot berib, tegishli mutaxassisini shtatda saqlash maqsadga muvofiq emas. Ushbu vazifa muntazam ravishda amalga oshirilib turganda tegishli mutaxassisni yollash mantiqan to‘g‘ri boladi.



## MOLIYAVIY HISOBOTNI MHXS ASOSIDA YURITISH USULLARI

**Mamatkulov Anvar Tashbayevich**  
 O‘zbekiston Respublikasi bank moliya  
 akademiyasi tinglovchisi  
 Telefon: 99 750-32-92  
[mamatkulov\\_1292@mail.ru](mailto:mamatkulov_1292@mail.ru)

**Moliyaviy hisobot** - bu tashkilotning hisobot sanasidagi mulkiy va moliyaviy holatini, shuningdek hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy natijalarini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tizimi. Bu korxonani boshqarish vositasi va shu bilan birga iqtisodiy faoliyat to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni umumlashtirish va taqdim etish usuli. O‘z navbatida, hisobot keyingi rejalashtirish uchun boshlang‘ich asos bo‘lib xizmat qiladi. Moliyaviy hisobotning maqsadi-kompaniyaning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul oqimlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘g‘ri taqdim etish, ular iqtisodiy qarorlar qabul qilishda keng foydalanuvchilar uchun foydalidir.

Xalqaro amaliyotda va O‘zbekiston qonunchiligidagi buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi axborot sifatida belgilangan. Bu iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydigan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning axborot funktsiyasi bo‘lib, u kapital bozorida samarali raqobatni ta‘minlaydi. Ishonchli moliyaviy hisobotsiz yangi, to‘g‘ri qarorlar qabul qilish mumkin emas.

O‘zbekistonda buxgalteriya hisobini rivojlanadirish yo‘nalishlaridan biri bu mavjud milliy buxgalteriya tizimini xalqaro buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot standartlari talablariga moslashtirishdir. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari-bu mulk, uning shakllanish manbalari, tashkilotlarning moliyaviy hisobotlarini global miqyosda tuzish uchun moliyaviy natijalarni tan olish, baholash va oshkor qilish talablarini belgilaydigan qoidalar. Ular turli xil iqtisodiy muhitda ishlaydigan tashkilotlarning moliyaviy hisobotlarida taqdim etilgan ko‘rsatkichlarning taqqoslanishini ta‘minlaydi va tashqi foydalanuvchilar uchun hisobot ma‘lumotlarining mavjudligi shartidir. MHXS buxgalteriya hisobi investor yoki qarz beruvchi tomonidan moliyaviy investitsiyalar va oqimlarni boshqarish uchun amalga oshiriladi degan tushunchaga asoslanadi.

Xalqaro tajribalarga asoslangan holda aytishimiz mumkinki, bugungi kunda korxonada hisob yuritishni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida olib borishda asosan ikki xil usuldan foydalaniladi. Bular: parallel hisob yuritish usuli hamda transformatsiya usuli.

**Parallel hisob** – bu korxonaning buxgalteriya hisobini bir vaqtning o‘zida mamlakatning ichki standartlari hamda xalqaro standartlar qonun qoidalariiga asosan yuritish hisoblanadi. Bunda buxgalteriya hisobini yuritishda bir marta provodka berilganda natija ikkita bazaning xotirasiga saqlanadi. Buning uchun korxona ichki bo‘linmalarini buyurtma asosida maxsus dasturiy ta‘minot bilan ta‘minlaydi. MHXS bo‘yicha parallel buxgalteriya hisobi MHXS qoidalariiga muvofiq operatsion asosda buxgalteriya registrlarida xo‘jalik faoliyati faktlarini aks ettirishni nazarda tutadi. Shunday qilib, xo‘jalik faoliyatining har bir fakti ikki marta qayd etiladi: birinchi marta BHMS bo‘yicha buxgalteriya tizimida, ikkinchisi – MHXS bo‘yicha. Parallel buxgalteriya hisobini tuzishda MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari MHXS bo‘yicha buxgalteriya ma‘lumotlari asosida shakllantiriladi.

**Transformatsiya** – bu hisobot sanasida amalga oshiriladigan jarayon bo‘lib, milliy buxgalteriya standartlari bo‘yicha tayyorlangan moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini moliyaviy hisobotning barcha elementlarini tan olish, o‘lchash va oshkor qilishning tegishli tamoyillarini hisobga olgan holda MHXS formatiga o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan barcha tuzatishlarni o‘z ichiga oladi. Transformatsiya imkoniyatlari foydalanilayotgan dasturiy ta‘minotlarning nomukammalligi bilan bog‘liq ma‘lum texnik chegaralarga ega. Transformatsiyaning asosiy kamchiliklaridan biri bu parallel buxgalteriya hisobini yuritish va kompaniya rahbariyatiga va boshqa manfaatdor tomonlarga tezkor asosda zarur ma‘lumotlarni taqdim etish imkoniyatining yo‘qligidir. Transformatsiya soddalashtirilgan jarayon bo‘lganligi sababli, MHXSga muvofiq hisobot tayyorlashda ko‘plab baholovchi faktorlar qo‘llaniladi. Transformatsiya faqat moliyaviy hisobot moddalariga ta’sir qiladi, parallel buxgalteriya hisobi esa butun hisobot davrida tuzilgan tegishli buxgalteriya yozuvlari asosida MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni shakllantirishni ta‘minlaydi. Binobarin, transformatsiya BHMS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotini MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobotga faqat hisobot sanasida (hisobot yilining oxiri, chorak) o‘zgartirishni nazarda tutadi.



Parallel buxgalteriya hisobini amalga oshirishning afzalligi moliyaviy hisobotda aks ettirilgan noto‘g‘ri ma’lumotlar xavfining potentsial past darajasidir. Shu bilan birga, MHXS bo‘yicha parallel buxgalteriya hisobini tashkil etish kompaniyalardan katta qo‘sishimcha xarajatlarni talab qiladi (MHXS bo‘yicha malakali xodimlar, dasturiy ta’minot, kompaniya bo‘linmalarini qayta tashkil etish xarajatlari va boshqalar). Bundan tashqari, ushbu jarayon uzoq vaqtni talab qiladi, chunki korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining ko‘plab sohalariga ta’sir qiladi.

Parallel buxgalteriya hisobiga nisbatan hisobotni transformatsiya qilishning afzalliklari past moliyaviy va vaqt xarajatlarini o‘z ichiga oladi. Shu bilan bir qatorda, transformatsiya natijasida olingan hisobot yuqori axborot xavfiga ega, chunki uni amalga oshirishda subyektiv baholashdan foydalaniladi. Biroq, ushbu xavfning qiymati to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijrochilarning malakasiga bog‘liq. Shunday qilib, hisobotni transformatsiya qilish xizmatlari sifatining asosiy omillaridan biri bu MHXS sohasidagi mutaxassisni tanlashdir, uning professional qarori hisobotning ishonchliligini oshiradi.

# **ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 9-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шоҳруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2023

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000